Sanepidqo'm laboratoriyalari laboranti (Sanitar-gigiyenik laboratoriya laboranti) mutaxassisligi bo'yicha shakllantirilgan test savollari ro'yxati

1. SEO va JSQ strukturasi qanday:
- sanitariya - gigiyena, epidimiologiya, dezinfeksiya
- dezinfeksiya, laboratoriya
- epidemiologiya, parazitologiya
- sanitariya, laboratoriya

2. Bitsinoz asoratlari:
- o'pka – yurak yetishmovchiligi
- buyrak yetishmovchiligi
- yurak yetishmovchiligi
- jigar komasi

3. Oziq ovqatlarni tekshirish usullari:
- organoleptik, fizik, kimyoviy, bakteriologik
- organoleptik
- fizik
- bakteriologik

4. Konditsionerlarning ahamiyati:
- havoni namlab va bug'lab beradi
- havoni changdan tozalaydi, ozonlaydi, dezodoratsiya qiladi
- havodagi virus va mikroblarni o'ldiradi
- havoni mexanik usulda tortadi

5. Gepatozni davolashda qaysi vitamindan foydalanish mumkin:
- xolin-B4 vitamin
- askorbin kislota-C vitamin
- retinol-Avitamin
- tiamin-B1 vitamin

6. Havodagi is gazining miqdori qaysi asbobda o'lchanadi:
- aspirator
- gazoanalizator
- tarozi
- spidometr

7. Ovqatlanish gigiyenasi fani nimani o'rganadi:
- oziq- ovqatlarni organizmga ta'siri, ratsional ovqatlanish va ovqatdan zaharlanishlarni
- ovqatdan zaharlanishlarni
- oziq- ovqatlarni xilma - xilligini
- ovqatlanish normalarini

8. Ratsional ovqatlanish tushunchasiga kiruvchi komponent:
- fiziologik talablarni qondirish
- tashqi ovqatlanish
- aralash ovqatlanish
- mutanosib ovqatlanish

9. Oziq-ovqat mahsulotlarining zamonaviy konservalash usulini ko'rsating:
- ultratovush yordamida konservalash
- yuqori va past haroratda konservalash
- pasterlash
- suvda qaynatish

10. Konservalarda chirituvchi bakteriyalarni ko'payishdan to'xtatish uchun nimadan foydalanamiz:
- sirka va limon kislota
- antibiotik
- shakar
- tuz, shakar

11. Tekshirish dalolatnomalarini qanday shakllarini bilasiz:
- tematik, tanlab olingan holda, qayta, dastlabki
- chuqurlashtirilgan, tematik, qayta
- sanitar, chuqur, tanlab olingan holda
- sanitar, kontrol, rejali

12. Oziq ovqat mahsulotlarini gigiyenik ekspertizasida barcha normativ xujjatlar bilan tanishish qaysi bosqichda amalga oshiriladi:
- mahsulotga qo'shib yuborilgan xujjat bilan tanishish bosqichi
- tayyorgarlik bosqichi
- mahsulotni organaleptik xossalarni tegishli sharoitda tekshirib ko'rish bosqichi
- mahsulot qadog'ini butunligini tekshirish bosqichi

13. "Beri-beri"kasalligi qaysi vitamin yetishmasligidan kelib chiqadi:
- PP
- B1
- B
- C

14. To'la qimmatli oqsillar go'shtning qaysi qismida bo'ladi:
- briktiruvchi to'qima
- muskul to'qima
- epiteliy to'qimasi
- nerv to'qima

15. Labaratoriyada sutning yog’liligi qaysi asbobda aniqlanadi:
- laktodensimetr
- jiromer
- kompressium
- Juravlyov asbobi

16. Ovqatlanish korxonalarini kompleks ravishda tekshirishda kimlar ishtirok etadi:
- epidimiolog, mehnat gigiyenasi shifokori, sanitar vrach
- ovqatlanish gigiyenasi vrachi, epidemiolog, boshqa sohada shifokor
- epidemiolog, infeksionist, bolalar bo’limi vrachi
- maktab shifokori, epidemiolog

17. Aholi orasida endemik bo’qoq kasalligini oldini olishda qaysi mahsulotga yod qo’shib beriladi:
- ichimlik suviga
- tuzga
- non mahsulotlariga
- sharbatlarga

18. Gigiyena fani nimani o’rganadi:
- ozodalikni, salomatlikni
- tashqi muhit omillarini organizmga ta’sirini
- to’g’ri ovqatlanish me’yorlarini
- shaxsiy gigiyenani

19. "Eber"va"Nessler"reaksiyasining musbatligi- go’shtda qanday modda hosil bo’lganligini bildiradi:
- serovodorod
- ammiak
- nitrit
- nitrat

20. Uglevodlar almashinuvini idora etuvchi gormon bu:
- adrenalin
- insulin
- gidrokortizon
- melatonin

21. Vitamin C yetishmovchiligida organizmda nima kuzatiladi:
- qon bosimini ko’tarilishi
- og’iz burchagini yorilishi
- ko’rish sifatini buzulishi
- sidik bilan qand ajralishi

22. Mahsulotni yaroqliligi to’g’risidagi xujjatni ko’rsating:
- dalolatnoma
- sertifikat
- bayonnoma
- ariza

23. Aholi orasida tish kariyesining ko’payishiga nima sabab bo’ladi:
- organizmda yod elementining yetishmasligi
- organizmda ftor elementining yetishmasligi
- organizmda rux elementining yetishmasligi
- organizmda temir elementining yetishmasligi

24. Mehnatning turlariga ko’ra kuniga oqsil me’yori qancha bo’lishi kerak:
- 130-140g
- 120-130g
- 110-130g
- 115-130g

25. Yog’lar, ularning biologik qiymati qanday:
- giltserinning hosilasi
- yog’ kislotalari, 3 atomli spirt
- yog’ kislotalari yig’indisi
- xolesterin

26. Solanindan zaharlanish qanday mahsulotni istemol qilish natijasida kelib chiqadi:
- konservalangan qo’ziqorinni
- Ko’kargan kartoshkani
- konservalangan danakli mevalarni
- zaharli baliqni

27. Konservalangan non kimlar uchun tayyorlanadi:
- zavod ishchilari uchun
- alpinistlar, ekspedisiya xodimlari uchun
- samolyotdagi passajirlar uchun
- navbatchilikdagi tibbiyot xodimlari uchun

28. Sog’lom aholi uchun eng ma’qul ovqatlanish rejimi kuniga necha mahalni tashkil etadi:
- 3 mahal
- 4 mahal
- 5 mahal
- 2 mahal

29. Odamda haddan tashqari ishtahaning oshishi va to’yish hissining yo’qolishi bilan boradigan kasallik qanday ataldi:
- anoreksiya
- bulemiya
- kaxeksiya
- gipotrofiya

30. Trixinnelaning odam organizmida rivojlanish zanjiri:
- ichak-limfa parenximatoz organlar
- ichak shilliq qavati, limfa yollari, qon, muskullar
- ichak-limfa-ichki organlar
- ichak qon, muskul qon

31. Uglevodlarning organizm uchun fiziologik ahamiyati:
- plastik ahamiyati
- quvvat manbayi
- boshqaruvchilik ahamiyati
- qurilish manbayi

32. Kantserogen omillar qanday kasalliklarni keltirib chiqaradi:
- ichki kasalliklar
- endokrin kasalliklar
- kantserogen kasalliklar
- yuqumli kasalliklar

33. Maydalangan qattiq birikmalarning havoda ma’lum daqiqa suzib yurish xususiyatiga ega bo’lgan zarrachalar nima deyiladi:
- tuman
- qum
- chang
- bug’

34. Kelib chiqish bo’yicha chang qanday tavsiflanadi:
- organik, anorganik, aralash chang
- aerozol dezintegratsiya, aerozol kondensatsiya
- fibrogen, allergen, kantserogen, qichituvchi, ionlantiruvchi
- yirik va mayda

35. Qanday changlar inson salomatligiga havf tug’diradi:
- diametri 10-100 mkm
- diametri 0,1-10 mkm
- diametri 0,1 mkm gacha
- insonga havf tug’dirmaydi

36. Chang ta’sirida yuzaga keladigan kasallik qanday nomlanadi:

- pnevmoniya
- psoriaz
- pnevmokonioz
- plevrit

37. Zaharli bo’lmagan yirik diametrli changlar qanday kasalliklarni keltirib chiqaradi:
- rinit, laringit, bronxit, konyuktivit
- rinit, konyuktivit, o’tkir ichak infeksiyalarini
- dermatit, konyuktivit, gepatit, meningit
- dermatit, bronxit, gastrit, xoletsistit

38. Tuproqning kattaligi:
- bir necha mikrondan bir necha sm gacha
- 10 mm dan 2 sm gacha
- 1-10 mm
- 10 mikrondan 10 sm gacha

39. Tuproq tarkibida necha % qum bo’lsa qumloq deyiladi:
- 90%
- 50%
- 70%
- 10%

40. Toza tuproq tarkibini nimalar tashkil etadi:
- uglerod (4) oksidi, suv bug’i, kislorod
- azot, uglerod, vodorod
- inert gazlar, kislorod
- ammiak, suv bug’i, kislorod

41. Ifloslangan tuproq tarkibida kislorod yetishmasligi natijasida qanday gazlar yig’ilishi mumkin:
- ammiak, vodorod, azot, kislorod
- vodorod, kislorod, karbonat angidrid
- kislorod, azot, inert gazlar
- ammiak, vodorod, karbonat angidrid

42. Tuproqdagi yodning kamayib ketishi natijasida qanday kasallik kelib chiqadi:
- bo’qoq
- fluoroz
- qorin tifi
- molibdenoz

43. Qoqshol, kuydirgi, gazli gangrena batsillalari tuproqda qancha vaqtgacha yashaydi:
- bir necha yilgacha
- bir necha oygacha
- bir necha kungacha
- bir necha soat

44. Toza tuproq tarkibi:
- azot, kislorod, vodorod, uglerod (4) oksidi
- uglerod (4) oksidi, suv bug'i, kislorod
- vodorod, kislorod, inert gazlar
- ammiak, vodorod peroksidi

45. Bakteriyalar tuproqda ko'payishiga qarab necha turga bo'linadi:
- kuchli va kuchsiz
- kuchli, o'rtacha, kuchsiz
- mayda, yirik, ko'p
- o'rtacha, kuchsiz

46. Tuproq tarkibidagi mikroorganizmlar qanday hususiyatga ega:
- chiritish
- oziqlantirish
- ko'payish
- spora hosil qilish

47. Qumloq tarkibidagi qum va loy nisbati:
- 90% qum, 10% loy
- 50% qum, 50% loy
- 30% qum, 70% loy
- 20% qum, 20% loy

48. Loy tuproq tarkibidagi loy miqdor:
- 50% dan ortiq
- 20%
- 30-70 %
- 40-50%

49. G'ovak tuproqning xususiyati:
- suv va havo singdiruvchanligi
- tarkibida 50% qum bo'lishi
- tarkibida 20% loy bo'lishi
- tarkibida pestitsidlar bo'lishi

50. Toza tuproq tarkibida ko'p miqdorda uchraydi:
- uglerod (IV) oksidi, suvbug'i, kislorod

- uglerod (IV) oksidi, ftor, kislorod
- uglerod (IV) oksidi, suvbug'i, qo'rg'oshin
- patogen mikroorganizmlar, suvbug'i, kislorod

51. Tuproq tarkibidagi chiritish xususiyatiga ega organizmlar:
- gijjalar
- lyamblyalar
- patogen viruslar
- patogen mikroblar

52. Bitsinozning klinik belgilari:
- bronxospastik sindrom
- dizurik o'zgarishlar
- diareya
- gipertenziya

53. Tebranish kasalligi kuzatiladi:
- temirni qayta ishlash, qurilish, mashinasozlikda, haydovchilarda
- aqliy mehnat bilan shug'ullanganda
- sport bilan shug'ullanganda
- ko'p ovqatlanish, ko'p uxlashda

54. Temirning asosiy fiziologik aiamiyatlaridan biri:
- insulin tarkibiy qismiga kirishi
- hujayra osmotik bosimini ta'minlashi
- Suv almashinuvini boshqarishi
- Oksidlanish fermentlari tarkibiy qismiga va gemoglobin hosil bo'lishida ishtiroki

55. Oziq-ovqatlarni sinamaga olinganda qanday hujjat to'ldiriladi:
- dalolatnoma
- bayonnoma
- buyruq
- anketa

56. Ovqatdan zaharlanishning qaysi turi yordam ko'rsatilmaganda o'lim bilan tugallanadi:
- salmonellyoz
- botulizm
- ergotizm
- ichak tayoqchasidan zaharlanish

57. Qish faslida qor ostida qolib ketgan don mahsullotlarini odam iste'mol qilganda qanday kasallik kelib chiqadi:
- ergotizim
- alimentar - toksik aleykiya

- fuzariyoz
- bakteriyali toksikoz

58. Pepsi kola tarkibida qaysi komponent bo'lmaydi:
- kofein
- tuz
- kuydirilgan shakar
- kola yong'og'ining ekstrakti

59. Vitaminlar qanday guruhlarga bo'linadi:
- vitaminlarsimon moddalar
- suvda eruvchan, yog'da eruvchan
- suvda eruvchan moddalar
- gormon vitaminlar

60. Yog'da eruvchi vitaminlarni ko'rsating:
- D, E, B
- A, D, E, K
- C, B6, B12
- P, K, B

61. Suvda eruvchan vitaminlarni ko'rsating:
- B1, B6, B12, D
- B guruh C, PP
- B1, D, E
- E, C, K

62. Qanday vitamin yetishmovchiligida shapko'rlik kelib chiqadi:
- D
- A
- B12
- B2

63. Kommunal gigiyena fanining asosiy maqsadiga kirmaydi:
- turar – joylarni loyihalashtirish
- atmosfera havosini va sanitariya holatini yaxshilash
- oziq – ovqat mahsulotlarini sanitariya nazorat qilish
- suv havzalarini sanitariya jihatidan muhofaza qilish

64. Gigiyena fanining rivojiga hissa qo'shgan olimlarni ayting:
- Abu Ali ibn Sino, Tolstoy
- Abu Ali ibn Sino, Ismoil Jurjoniy, Umar Chog'miniy
- Ismoil Jurjoniy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek
- Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek

65. Kasallik kelib chiqishining oldini olish va uni keltirib chiqaruvchi sabablarini bartaraf etish bu:
- dezinfektsiya
- pasterizatsiya
- profilaktika
- sterilizatsiya

66. Aholining alohida guruhlarida o'rtacha umri, o'limi, hastalanishi, fiziologik rivojlanishi o'rganilib, yilma-yil solishtiriladigan holat qaysi usulda o'rganiladi:
- sanitariya tekshirish usulida
- fiziologik usulda
- antropometrik
- statistika usulda

67. Tirik organizmning yashash shart – sharoitlari, organizm bilan tabiiy muhit orasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganadigan fanni ko'rsating:
- ekologiya
- epidemiologiya
- biologiya
- kommunal gigiyena

68. Quyidagilardan qaysilari tashqi muhitning fizik omillariga kiritiladi:
- so'z, nutq, maktub, o'zaro munosabatlar
- patogen mikroblar, viruslar, zamburug'lar
- havo, suv, tuproq, oziq – ovqat, tarkibidagi kimyoviy birikmalar
- havo harorati, namligi va harakat tezligi, shovqin, tebranish

69. Inson organizmiga ta'sir etuvchi tashqi muhit omillarini ko'rsating:
- kimyoviy, fizik, biologik, bakteriologik, psixogen
- tabiiy, umumiy, mahalliy
- ekologik, tabiiy, ommaviy
- sanitariya – gigiyenik, biologik, bakteriologik

70. Ekologiya atamasini fanga kiritgan olimni ayting:
- Abu Ali ibn Sino
- Gekkel
- Ch. Darvin
- Lamark

71. "Davlat sanitariya nazorati to'g'risida"gi Qonun qachon qabul qilingan:
- 1982 yil 3.07
- 1992 yil 3.07
- 2002 yil 3.07
- 2008 yil 3.07

72. DSN qanday ko’rinishida olib boriladi:
- joriy va yakuniy
- joriy va ogohlantiruvchi
- oddiy va murakkab
- rejali va rejasiz

73. OSNning ikkinchi bosqichida qanday ishlar amalga oshiriladi:
- yer maydonini tanlash
- loyihani ekspertiza qilish
- qurilish jarayonida nazorat olib borish
- bitgan ob’yektni topshirish

74. KSN kimlar tomonidan olib boriladi:
- DPM tomonidan
- SEO va JSQ xodimlari tomonidan
- Uchastka shifokori va hamshirasi tomonidan
- ilmiy tekshirish institutlari tomonidan

75. “Davlat nazorati to’g’risida”gi Qonun nechta bo’lim va moddadan iborat:
- 4 ta bo’lim 32ta modda
- 5 ta bo’lim 32ta modda
- 32 ta bo’lim 6 modda
- 6 ta bo’lim 32 ta modda

76. Atmosfera havosining tarkibiy qismlari nimalardan iborat:
- chang, is gazi, zarrachalar, portlovchi moddalar
- metan va etan
- azot, kislorod, uglerod, suv bug’lari, inert gazlar, azon va boshqalar
- kislorod, vodorod, is gazi, azot, karbonat angidrid gazi

77. Ultrabinafsha nurlari yerga yetarli tushmasligi natijasida qanday kasallik kelib chiqadi:
- virusli gepatit
- sariq kasalligi
- raxit kasalligi
- bo’qoq

78. Atmosfera qaysi yo’llar bilan ifloslanadi:
- transportlardan chiqqan gazlar bilan
- tabiiy va sun’iy
- zaharli chiqindilar bilan
- ichki va tashqi omillar bilan

79. Yerning ustki qismini o’rab olgan gazli qavati nima deb ataladi:

- biosfera
- stratosfera
- atmosfera
- litosfera

80. Ekologiya qaysi tildan olingan:
- grekcha
- franzuscha
- lotincha
- o’zbekcha

81. Atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbalar:
- tabiiy va antropogen
- transport
- insonlar
- yo’g’in suvlari

82. Atmosfera havosini tabiiy tozalanishda nimalarning ahamiyati katta:
- o’simliklar, yog’ingarchiliklarning
- suv havzalari, kimyo sanoatining
- avtotransport
- o’simlik va hayvonlarning

83. Tashqi muhitning odamga doimiy ta’sir ko’rsatadigan omillarini ko’rsating:
- havo harorati, atmosfera bosimi, shovqin, vibratsiya
- havo harorati, atmosfera bosimi, namligi, havoning harakati tezligi
- havoning namligi,havoning harakati tezligi, chang - aerozollar
- havo harakati tezligi, havo ionizatsiyasi, nurlanish

84. Havo, devorlar va tevarak-atrofdagi predmetlar harorati oshganda qanday holat kuzatiladi:
- konveksiya va nurlanish yo’li bilan issiqlik berish kamayib, bug’lanish yo’li bilan issiqlik berish ortadi
- konveksiya va nurlanish yo’li bilan issiqlik berish ancha ortib, bug’lanish yo’li bilan issiqlik yo’qotish kamayadi
- konveksiya va nurlanish yo’li bilan issiqlik berish ortadi
- hech qanday o’zgarish kuzatilmaydi

85. Namlik deganda nima tushuniladi:
- havoda mavjud suv bug’lari miqdori
- 1 litr havodagi suv bug’larining grammlardagi miqdori
- 1 litr havoning suv bug’lari bilan to’liq to’yinishi uchun zarur bo’lgan suv bug’ining gr lardagi miqdori
- absolyut namlikning foizlarda ifodalangan maksimal namlikka nisbati

86. Maksimal namlik deb nimaga aytiladi:
- havoda mavjud suv bug'lari miqdori
- 1 litr havodagi suv bug'larining grammlardagi miqdori
- 1 litr havoning suv bug'lari bilan to'liq to'yinishi uchun zarur bo'lgan suv bug'ining gr lardagi miqdori
- absolyut namlikning foizlarda ifodalangan maksimal namlikka nisbati

87. Havo harorati qaysi asbob yordamida aniqlanadi:
- tonometr
- termometr
- anemometr
- gigrograf

88. Termometrning qanday turlari mavjud:
- metall va simobli
- qanotli va kosachali
- spirtli va simobli,masofaviy
- suvli va metalli

89. Odatdagi meteorologik sharoitlarda eng qulay nisbiy namlikni ayting:
- 30 – 40%
- 40 – 60%
- 60 – 80%
- 96%

90. Havo namligini uzluksiz qayd qilib boruvchi asbobning nomi:
- barograf
- termograf
- gigrograf
- psixrometr

91. Bolalar bog'chasi o'ynash xonalarida havoning harorati qanday bo'lishi kerak:
- 15 – 170C
- 18 – 200C
- 20 – 210C
- 22 – 260C

92. Havo harakatining tezligi qanday ifodalanadi:
- foiz (%)
- gradus(0C)
- metr sekundlarda (m/s)
- lyukslarda

93. Mazkur joylarda shamol takrorlanishining grafik tasviri nima deyiladi:
- shamol yo'nalishi
- " shamol guli"
- shamol kuchi
- to'fon

94. Turar joy xonalarida havoning tezligi me'yorida qanday bo'lishi kerak:
- 0,1 – 0,3 m/s
- 0,5 m/s
- 1 – 1,5 m/s
- 2 m/s

95. Havo yo'nalish tezligi qaysi asboblarda aniqlanadi:
- spirtli va simobli termometrlarda
- qanotli va kosachali anemometrlarda
- simobli va metalli barometrlarda
- aspiratsion va statik psixrometrlarda

96. Yopiq xonalarda havoning kichik harakat tezligini (0,1-0,2 m/ sgacha) aniqlash uchun qaysi asbob ishlatiladi:
- termometr
- barometr
- katatermometr
- aktinometr

97. Qanday holatda atmosfera bosimi normal bosim hisoblanadi:
- 670 mm simob ustuniga teng
- 760 mm simob ustuniga teng
- 860 mm simob ustuniga teng
- 960 mm simob ustuniga teng

98. Kislorod partsial bosimining kamayishi natijasida qanday kasallik paydo bo'ladi:
- balandlik kasalligi
- gipoksiya
- kesson kasalligi
- kasb kasalligi

99. Kimlar yuqori atmosfera bosimi ta'siriga uchraydi:
- kon ishchilari,g'avvoslar
- alpinistlar, uchuvchilar
- shifokorlar va hamshiralar
- chorva xodimlari

100. Atmosfera bosimini aniqlashda qaysi asboblarda aniqlanadi:

- spirtli va simobli termometrlarda
- qanotli va kosachali anemometrlarda
- simobli va metalli barometrlarda
- aspiratsion va statik psixrometrlarda

101. Atmosfera bosimini avtomatik holda aniqlash maqsadida o'zi yozuvchi asbob qanday nomlanadi:
- gigrograf
- barograf
- termograf
- barokamera

102. Ma'lum fursatga,ma'lum yer yuzasining muayyan qismida mavjud bo'ladigan atmosferaning meteorologik komponentlarining yig'indisi bu:
- iqlim
- ob-havo
- rel'yef
- landshaft

103. Iqlimning mahalliy turlarini ko'rsating:
- dengiz, cho'l, shahar, o'rmon
- dengiz, tog', kontinental, qishloq
- dengiz, kontinental, cho'l, tog'
- kontinental, tropik, subtropik, tog'

104. Organizmning iqlimga moslashishi nima deyiladi:
- akkomodatsiya
- akklimatizatsiya
- akseleratsiya
- assenizatsiya

105. Kechishi va oqibati yil mavsumiga va ob-havo holatiga bog'lik bo'lgan kasalliklar qanday nomlanadi:
- meteotrop kasalliklar
- endokrin kasalliklar
- yuqumli kasalliklar
- endemik kasalliklar

106. O'zbekiston hududi qaysi geografik iqlim mintaqasida joylashgan:
- I iqlim mintaqasida
- IV iqlim mintaqasida
- VI iqlim mintaqasida
- VIII iqlim mintaqasida

107. Atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbalarni ko'rsating:

- tabiiy va antropogen
- qattiq va suyuq
- tabiiy va sun’iy
- ichki va tashqi

108. Texnologik jarayonni almashtirish yo’li bilan zararli moddalarni atmosferaga chiqarib tashlashni kamaytirish, yoki yo’q qilish qaysi chora – tadbirlarga kiradi:
- umumiy
- texnologik
- rejalashtiruvchi
- sanitar – texnik

109. Shamol yo’nalishini hisobga olgan holda ishlab chiqarish va yashash zonalarini to’g’ri taqsimlashni, ishlab chiqarish korxonalarini yashash binolaridan ajratib turadigan SHM yaratishni o’z ichiga olgan tadbirlar qanday ataladi:
- umumiy
- texnologik
- rejalashtiruvchi
- sanitar – texnik

110. S.H.M nechta sinfga bo’linadi:
- 3
- 4
- 5
- 6

111. Gaz yetarli darajada yonmaganda atmosfera havosiga qanday moddalar ajralib chiqadi:
- is gazi, uglevodorodlar, sulfid angidrid
- is gazi, kislorod, karbonat angidrid
- uglevodorodlar, sulfat kislota, qo’rg’oshin
- uglevodorodlar, karbonat angidrid, metan

112. Avtotransportlardan chiqadigan gaz tarkibida qanday zaharli moddalar bo’ladi:
- is gazi, uglevodorodlar, sulfid angidrid
- is gazi, azot (II) oksidi, uglevodorodlar, karbonat angidrid
- uglevodorodlar, karbonat angidrid, kislorod
- uglevodorodlar, karbonat angidrid, metan

113. Infraqizil nurlanishga baho berishda qanday sanitar me’yorlarga asoslanadi:
- issiqlik nurlanish intensivligi

- qo’shimcha omillarni mavjudligi
- himoya ekranlarini mavjudligi
- ishchi tanasining nurlanish qismining o’lchami

114. Aktinometr bilan qaysi ionlashtirilmagan nurlanish o’lchanadi:
- radioto’lqinli
- ultrabinafsha
- o’ta yuqori chastotali
- infraqizil

115. Infraqizil manbayi mavjud joylarda havo harorati va nisbiy namlik qaysi asbobda o’lchanadi:
- avgust psixrometri
- gigrometr
- aktinometr
- Assman psixrometri

116. Nurlanish yo’li bilan organizmdan issiqlik ajralib chiqishida qaysi asbobdan foydalaniladi:
- radiometr
- teplometr
- aktinometr
- anemometr

117. Radiatsiyaning qanday tiplari mavjud:
- alfa, betta, gamma
- qizil, yashil, ko’k
- suyuq, qattiq, gazsimon
- alfa, delta, penta

118. Radioaktiv zonaga borganda qanday qo’shimcha chora tadbirlar qo’llaniladi:
- tanani zich yopib turadigan maxsus kiyimbosh kiyish
- olovga chidamli kiyim va ko’zoynak taqish
- oddiy xalat, etik, qalpoq kiyish
- hech qanday maxsus kiyim bosh talab qilinmaydi

119. Qaysi atama moddalarning o’z-o’zidan parchalanish qobiliyatini anglatadi:
- ionlanish
- radioaktivlik
- yig’ilish
- doza ta’siri

120. Tanlangan qaysi izotop qalqonsimon bezda to’planadi:

- kaltsiy
- tseziy
- yod
- strontsiy

121. Ionlashtiruvchi nurlanishning ochiq manbalarining asosiy xususiyatini ko’rsating:
- radioaktiv moddalar atrof-muhitga tushadi
- radioaktiv moddalar atrof-muhitga tushmaydi
- manba radiatsiya atrof-muhitga tushadi
- manba radiatsiya atrof-muhitga tushmaydi

122. Atrof-muhitdan radioaktiv moddalarning inson organizmiga tushishining eng xavfli yo’li qanday:
- og’iz orqali
- teri orqali
- nafas yo’llari orqali
- parenteral yo’l orqali

123. Radioaktiv moddalarning xossalari organizmga tushganda patologik o’zgarishlarga olib kelishi qanday atama bilan ataladi:
- ionlanish
- kumulyatsiya
- radiotoksiklik
- radioaktivlik

124. Inson tanasi hujayralaridagi qaysi modda ionlashtiruvchi nurlanish dozasining taxminan 50%ni o’zlashtiradi:
- suv
- oqsillar
- mineral moddalar
- yog’lar

125. Qaysi turdagi rentgen diagnostika muolajalarida bemor nurlanishning past dozasini oladi:
- flyuorografiya bilan
- rentgenoskopya bilan
- rentgenografiya bilan
- tomografiya bilan

126. Osteotrop izotoplarga misol keltiring:
- kaltsiy
- tseziy
- yod
- stontsiy

127. Ochiq manbalardagi ionlashgan nurlanishning tasnifini ko’rsating:
- radioaktiv moddaning atrof muhitga tushishi
- radioaktiv moddaning atrof muhitga tushmasligi
- nurlanish manbalaridan atrofga tushishi
- atrofga nurlanish manbasidan tushmasligi

128. Birinchi sinf radioaktiv moddalarni ochiq usulda ishlatishni olib boruvchi laboratoriyalarga qanday talablar qo’yiladi:
- alohida binoda
- alohida talab yo’q
- izolyatsion bloklarda
- ochiq havoda

129. Yopiq manbada ionlashgan nurlanish bo’lganda xodimda qanday nurlanish xavfi kuzatiladi:
- ichki nurlanish
- tashqi nurlanish
- yopiq manbada nurlanmaydi
- xavf kuzatilmaydi

130. Radiologik ob’ektdagi xodimlarning mehnat sharoitini nazorat qilish vazifasi kimga yuklatilgan:
- agar ob’ekt yirik bo’lsa, radiatsion havfsizlik xizmatiga
- yirik ob’ektlardan – SEO ga
- kichik ob’ektlarda– vrach zimmasiga
- kichik ob’ektlarda - radiologik ob’ektni qo’riqlash xodimlari zimmasiga

131. Ba’zi elementlar atomlari yadrolarining ionlashtiruvchi nurlanish chiqargan holda boshqasiga aylanishi bu:
- radioaktivlik
- beta-parchalanish
- alfa-parchalanish
- ionlanish

132. Alfa –parchalanish bu:
- 4/2 He yadrolarining chiqarilishi
- yadrolardan elektronlar chiqarilishi
- yadrolardan deytronlarning chiqarilishi
- yadrolardan elektron va pozitronlarning chiqishi

133. Beta parchalanish bu:
- yadrolardan electron va pozitronlar chiqarilishi
- yadrolardan elektronlar chiqarilishi
- fotonlardan yadro chiqarilishi

- yadrolardan neytronlar chiqarilishi

134. Gamma nurlanishlarning o’tish qobiliyatini ko’rsating (havo orqali):
- o’nlab metr
- 5-10 m
- 20 sm
- 1-2 m

135. Qaysi ko’rsatkich nurlanishlarning ionlantiruvchi qobiliyatini ifodalaydi:
- energiyaning chiziqli uzatilishi(E.Ch.U)
- nurlanish energiyasi
- nurlanishlarning singish qobiliyati
- moddaning agregat holati

136. Quyida keltirilgan ionlantiruvchi nurlanish tufayli yuzaga kelgan biologik samaralardan qaysi biri determinatsiyalanganlar toifasiga mansub:
- nur kasalligi
- xavfli o’smalar
- leykozlar
- genetik kasalliklar

137. Quyidagi ionlantiruvchi nurlanishlar tufayli yuzaga keluvchi biologik samaralardan qaysi biri stoxastik toifaga kiritiladi:
- xavfli o’smalar
- nur kasalligi
- nur dermatiti
- nur kataraktasi

138. Gamma va rentgen nurlaridan himoyalanish uchun qaysi materiallar ishlatiladi:
- katta atom birlikdagi materiallar(qo’rgoshin, temir, beton)
- tarkbida vodorod ko’p bo’lgan materiallardan(suv, parafin)
- mis va kadmiy filtrlari
- oyna, keramika, plastmassa

139. Ionlantiruvchi nurlanishlar ta’sirining uzoq asoratlari qanday:
- leykemiya, yangi paydo bo’lgan xavfli o’smalar, umr ko’rishning qisqarishi
- nurdan kuyishlar,surunkali nur kasalligi, soch to’kilishi
- surunkali nur kasalligi, umr qisqarishi, nurdan kuyish
- nur dermatiti, kataraktalar, surunkali nur kasalligi

140. Qanday nurlanish dozalarida stoxastik samaralar yuzaga kelishi mumkin:
- har qanday dozalarda
- kichik dozalarda

- katta dozalarda
- 1000 rentgenda

141. Rentgen xonalaridagi radiatsion nazorat qanday ko'rinishlarda o'tkazilishi lozim:
- umumiy va individual dozimetrik nazorat
- umumiy dozimetrik nazorat
- individual dozimetrik nazorat
- to'liq radiometrik nazorat

142. Samarali dozaning o'lchov birligini ko'rsating:
- zivert, Ber
- grey, Rad
- kyuri, Bekkerel
- inson-zivert

143. Individual samarali dozaning oshishi rejalashtirilishiga yo'l qo'yiladimi:
- favqulodda vaziyatlarda
- aslo yo'l qo'yilmaydi
- yo'l qo'yiladi, ammo 0.5 individual samarali dozadan oshmaydi
- mudofaa ahamiyatiga ega bo'lgan korxonalarda yo'l qo'yiladi

144. Radiologik labaratoriyalarning qaysi sinflarida sanitariya o'tkazgichi moslamasi majburiy:
- I va II sinflarda
- I sinfda
- II sinfda
- III sinfda

145. Ko'rsatilgan xonalarning qaysi biri I sinfga oid ochiq RM bilan ishlashda kerak bo'lmaydi:
- RMni ko'mish ob'ektlari
- ishlatilmaydigan xonalar
- vaqti-vaqti bilan ishlatiladigan xonalar
- xodimlar doimo bo'ladigan xonalar

146. Aholining jamoaviy nurlanish yuklamasiga eng ko'p hissa qo'shadiganlar bu:
- rentgen yordamida tashxislash
- rentgen muolajalari
- radioterapiya
- flyuorografiya

147. Havo radioaktivligini aniqlash maqsadida undan namuna olishning ikki usulini ayting:

- aspiratsion va sedimentatsion usul
- filtratsion usul
- vakuumli usul
- yutuvchi muhitga havo tanlab olish

148. Kasb kasalliklari birinchi marta nechanchi yilda ro'yxatga olingan:
- 1966 yilda
- 1965 yilda
- 1964 yilda
- 1994 yilda

149. Kimyoviy omillardan kelib chiquvchi kasb kasalligini belgilang:
- silikoz
- radikulit
- tebranish
- dermatit

150. Jismoniy zo'riqishdan kelib chiquvchi kasallik – bu:
- osteoxondroz
- nevroz
- tebranish
- silikoz

151. Organik changni toping:
- korxona changi
- mushuk changi
- metall changi
- shisha changi

152. Biologik changdan qaysi kasallik kelib chiqadi:
- katarakta
- nevroz
- tebranish kasalligi
- tuberkulyoz

153. Pnevmokonioz belgisi:
- qorin limfalarini kattalashishi
- ko'krak limfalarini kattalashishi
- qo'ltiq osti limfalarini kattalashishi
- plevra bo'shlig'iga suv yig'ilishi

154. Pnevmokoniozda rentgenda II-bosqichda nima ko'rinadi:
- limfalarni kattalashishi
- granulomalar
- kavernalar

- qon quyilishlar

155. Pnevmokoniozda rentgenda I-bosqichda nima ko’rinadi:
- limfa tugunlarining kattalashishi
- granulomalar
- kavernalar
- qon quyilishlar

156. Kaverna so’zining ma’nosi:
- bo’shliq
- qizarish
- ko’karish
- shish

157. Emfizema nima:
- suyuqlik
- o’t ajralishi
- qon quyqasi
- o’pka shishi

158. Kasb kasalliklari omillarini sanang:
- ishlab chiqarish changi, fizik, biologik, kimyoviy omillar, jismoniy zo’riqishdan kelib chiqadigan kasallik
- temir preparatlari,gipoxlorid kalsiy qabul qilish,tuproq omillari,suv omillari
- sut maxsulotlari, qandolatchilik,duradgorlik omillari
- ishlab chiqarish maxsulotlari, suv,biologik vositalar,ruhiy zo’riqish

159. Bo’g’ilish xurujida shoshilinch yordam:
- majburiy holat yaratish, toza havoga olib chiqish, cho’ntak ingalyatoridan foydalanish
- qon to’xtatuvchi jgut qo’yish,bosib turuvchi bog’lam qo’yish,ditsinon 2ml mushak orasiga qilish
- toza havo yaratish, eufillin 2,4% li vena ichiga yuborish, qon to’xtatuvchi vositalar qilish
- siqib turuvchi kiyimlarni yechish, issiq vanna qilish,qon to’xtatuvchi dori vositalar qilish

160. Qaysi elementlar qo’rg’oshinni so’rilishini oshiradi:
- xlor
- ruh
- marganets
- kremniy

161. Kimyoviy omillar ta’sirida kelib chiqadigan kasallik:
- toksik gepatit

- polinevropatiyalar
- pnevmokoniozlar
- o’pka sili

162. Biologik omillar ta’sirida rivojlanadigan kasallik:
- dermatitlar, brutsellyoz
- silikoz, silikatozlar
- changli bronxit
- o’tkir zaharlanishlar

163. Simob organizmda qaerda ko’p bo’ladi:
- miyada
- jigarda
- taloqda
- suyakda

164. Kaxeksiya so’zining ma’nosi:
- ozib ketish
- semirib ketish
- ko’p terlash
- hansirash

165. Korxonalarda changdan himoyalanish usuli:
- respirator niqobdan foydalanish
- emlash
- tibbiy ko’rikdan o’tish
- ish vaqtini qisqartirish

166. Uglevodorod qatoriga kiruvchi organik erituvchidan birining nomi:
- benzol
- benzin
- xloroform
- qo’rg’oshin

167. Asab tizimiga ta’sir etuvchi organik erituvchi:
- etil spirti
- benzin
- metil spirti
- butil efirlari

168. Qon va qon hosil qiluvchi a’zolarga ta’sir etuvchi organik erituvchi:
- etil spirti
- benzol
- metil spirti
- butil efirlari

169. Audiometriya usuli - bu:
- tebranishni sezish darajasini o'lchash
- mushaklar kuchini o'lchash
- shivirlash metodi
- o'pkaning tiriklik sig'imini aniqlash

170. Og'riqni sezish funktsiyasini aniqlashda o'tkaziladigan tekshiruv:
- spirometriya
- dinamometriya
- algezimetriya
- antropometriya

171. Pnevmokonioz turlarini ko'rsating:
- silikoz, sideroz, karbokonioz
- osteoxondroz, bitsinoz
- karbokonioz, dermatoz
- artroz, silikatoz

172. Bronxitda bemor o'pkasida eshitiladi:
- vezikulyar nafas
- bronxial nafas
- nam xirillashlar
- timpanik nafas

173. Fosfororganik pestitsidlardan o'tkir zaharlanishga xos simptomlarni ko'rsating:
- mioz, gipersalivatsiya, bradikardiya
- nistagm, miofibrillyatsiyalar, bosh og'rigi
- terining quruqligi, bradikardiya, titrash
- midriaz, og'iz, qurishi, taxikardiya

174. Pnevmokoniozni davolash choralari:
- simptomatik, silga qarshi, fizioterapevtik
- spazmolitiklar, fermentativ
- gipotenziv vositalar
- nosteroid gormonlar

175. Agar ovqat ratsionida oqsil, yog', uglevodlar nisbati 1:6:3 bo'lsa, ovqatlanish sifatiga tavsif bering:
- ovqatlanish muvozanatlashgan
- ovqatlanish muvozanatlashmagan
- ovqatda oqsillar ko'p
- ovqatda yog'lar kam

176. Qish faslida ovqat ratsioni: nonushta - 10%, tushlik - 30%, kechki ovqat - 60% bo'lsa, ovqatlanish sifatini belgilang:
- ovqatlanish oqilona
- ovqatlanish oqilona emas
- kechki ovqat kaloriyasi past
- tushlik ovqat kaloriyasi yuqori

177. Ovqatlanishni adekvatligini baholashda qaysi ko'rsatkich hisobga olinmaydi:
- oqsillar miqdori
- stol servirovkasi
- ovqatning fiziologik qiymati
- ovqat qo'shilmalarining miqdori

178. Kolbasa tarkibidagi kraxmal qanday modda bialn aniqlanadi:
- xrom-ko'ki
- yod
- brilliant yashili
- mis sulfat

179. Ovqat mahsulotlarining sifatiga shubha tug'ilganida ularni ekspertiza qilishdagi asosiy bosqichlarini aytib bering:
- organoleptik tekshirish
- brakeraj, kimyoviy analiz
- fizik tekshirish
- kimyoviy tekshirish

180. Oqsil, yog', uglevod qanday nisbatda bo'ladi:
- 1:1:3
- 1:1:4
- 1:2:4
- 1:3:5

181. Rezavor mevalarda qanday organik kislatalar boladi:
- askorbin kislotasi
- olma, Limon, Vino kislotasi
- nikotin kislotasi
- vino va Allil kislotasi

182. Yetarlicha ovqatlanmaslik bilan bog'liq bo'lgan kasallikni ko'rsating:
- alimentar semizlik
- gipotrofiya
- alimentar- toksik aleykiya
- gipovitaminozlar

183. O’zbekiston hududida uchraydigan zaharli qo’ziqorini turlarni ko’rsating:
- lisichka
- muxomor
- sarg’ayuvchi shampinyon
- oq poganka

184. Kuydirgi bilan kasallangan sigir sutini ishlatish yo’li:
- qaynatib ishlatiladi
- utilizatsiya qilinadi
- buzoqlarga yem sifatida beriladi
- pasterizatsiyadan keyin ishlatiladi

185. DPM bemorlarini ovqatlantirish sifatiga kim javobgar:
- palata shifokori
- katta hamshira
- bosh shifokor
- oshpaz

186. Aholi o’rtasida ko’p uchraydigan gipovitaminoz holatini ko’rsating:
- gipovitaminoz B
- gipovitaminoz C
- gipovitaminoz E
- gipovitaminoz D

187. Vitamin C ning manbalarini ko’rsating:
- mevalar
- sitruslar
- don mahsulotlari
- tuxum

188. Provitamin A- karotin tutuvchi mahsulotlarni ko’rsating:
- sariq sabzi
- qizil sabzi
- qizil qalampir
- qovoq

189. B guruh vitaminlarini tutuvchi mahsulotlar:
- jigar
- no’xot
- don mahsulotlari
- sabzavotlar

190. Ovqatdan zaharlanishning asosiy guruhlarini ayting:
- mikrobga oid bo’lmagan

- mikrobga oid va mikrobga oid bo’lmagan
- sababi aniqlanmagan
- kimyoviy tabiatli

191. Xo’randalarga berilayotgan I-taom harorati qancha bo’lishi kerak:
- 65 °C dan kam emas
- 75 °C dan kam emas
- 100 °C
- 55°C

192. Suyaklarning X simon va O simon qiyshayishi, tishlarning kech chiqishi, liqildoqlarning kech bitishi bilan xarakterlanuvchi kasallik nomi:
- Beri - beri
- Raxit
- Pellagra
- Lavsha

193. Muzlatilgan mahsulotni vakuum ostida quritishga nima deyiladi:
- Pasteratsiya
- Sublimatsiya
- Sterilizatsiya
- Dezinfeksiya

194. Suvda eruvchi vitaminlarga kirmaydi:
- PP vitamini
- D vitamin
- B12 vitamini
- C vitamin

195. Yog’larga bo’lgan sutkalik ehtiyoj qancha:
- 200 g
- 100 g
- 50 g
- 400 g

196. Uglevodlarga bo’lgan sutkalik ehtiyoj qancha:
- 200 g
- 400 g
- 50 g
- 100 g

197. Kimyoviy usulda namunalarni tekshirishda aniqlanad:
- ishqoriyligi
- kislotaligi
- zichligi

- namligi

198. Sut zavodi ish zonasida optimal harorat qancha:
- 19-25 daraja
- 17-19 daraja
- 20-25 daraja
- 26-30 daraja

199. Sut zavodida past haroratli surunkali pastepizatsiya qanday o'tkaziladi:
- 85-90 gradus 40 daqiqa
- 63-65 gradus 30 daqiqa
- 73-80 gradus 40 daqiqa
- 90-100 gradus 50 daqiqa

200. Mineral ichimliklar zavodida mahsulotni patogen bakteriyalarga tekshirish qachon olib boriladi:
- zavod laboratoriyasi tomonidan har kuni tekshiriladi
- SEOvaJSQ tavsiyasi bilan
- sifati pasaygan vaqtda tekshiriladi
- yiliga 1 marta tekshiriladi

201. Un mahsulotlarida ruxsat qilingan metall qoldiqlari miqdori qancha:
- 5mg/kg
- 3mg/kg
- 7mg/kg
- 20mg/kg

202. Un mahsulotlarining gigiyenik ko'rsatkichlari:
- g'ovakligi, kislotaligi va begona moddalr bo'lmasligi
- kislotaligi, namligi va begona moddalar bo'lmasligi
- kislotaligi, namligi va begona moddalar borligi
- namligi, g'ovakligi, bakteriyalar bo'lmasligi

203. Nonning gigiyenik ko'rastkichlarini ko'rsating:
- azot, ammiak, kislotaligi
- kislotaligi, namligi, g'ovakligi
- kislotaligi, zichligi, oqsillar borligi
- oqsillar, yog'lar, azot

204. Baliq go'shtining mol go'shtidan tarkibi bo'yicha farqi:
- kollagen yo'qligida
- elastin yo'qligida
- albumin oqsili borligi
- kollagen borligida

205. B1 vitamini tanqisligida qanday kasallik kelib chiqadi:
- pellagra
- beri – beri
- shapko’rlik
- raxit

206. Qanday aholi orasida ovqat ratsioniga o’simlik moylari ko’p bo’lishi kerak:
- o’smirlarda
- qariyalarga
- sportchilarda
- og’ir mehnat bajaruvchilarda

207. Uglevodlarning ortiqcha qismi qanday o’zlashtiriladi:
- ichakda glikogenga aylanadi
- jigar va mushaklarda glikogenga aylanadi
- oqsilga aylanadi
- ter orqali chiqib ketadi

208. Sabzavot va mevalarda qancha suv bo’ladi:
- 10-20%
- 80-90%
- 40-50%
- 5-10%

209. Organizmda o’sish jarayonida qatnashuvchi modda:
- yog’
- oqsil
- uglevod
- laktoza

210. Necha % energiya oqsillar hisobiga qoplanadi:
- 18-19%
- 14-15%
- 50-100%
- 30-40%

211. Yarim to’yingan yog’ kislotalarga nimalar kiradi:
- palmitin
- araxidon
- stearen
- uchuvchan kislota

212. Albuminga boy sut:
- Qoramol suti

- Yilqi suti
- Echki suti
- Qo’y suti

213. Araxidon kislota qanday hayvon yog’ida ko’p bo’ladi:
- mol yo’gi
- cho’chqa yog’i
- qo’y yo’gi
- ot yog’i

214. Qonda qand miqdorini kamayishi nima deyiladi:
- giperglikemiya
- gipoglikemiya
- avitaminoz
- gipervitaminoz

215. Qonda qand miqdorini ko’payishiga nima deyiladi:
- gipogilikimiya
- giperglikemiya
- avitaminoz
- gipervitaminoz

216. Disaxaridlarga kirmaydi:
- saxaroza
- glyukoza
- laktoza
- maltoza

217. Normada qonda qand miqdori qancha bo’ladi:
- 2.0-7.5 mmol/l
- 3.3-6.0 mmol/l
- 6.6-7.7mmol/l
- 7.5-10.0 mmol/l

218. Sut tarkibidagi uglevod qanday ataladi:
- glyukoza
- laktoza
- sukroza
- saxaroza

219. Tovuq tuxumning o’rtacha og’irligi qancha:
- 100 gramm
- 50 gramm
- 80 gramm
- 30 gramm

220. Qora oqsoq serologik sinimasi musbat, ammo kasalligi bo'lmagan qoramaol sutini ishlatish yo'li:
- ishlatib bo'lmaydi
- pastepizatsiyadan keyin ishlatsa bo'ladi
- buzoqqa yem sifatida
- yo'qotiladi

221. Qanday vitaminlar termik ishlovga chidamli bo'ladi:
- suvda eruvchan
- Yog'da eruvchan
- vitamin simon moddalar
- C vitamini

222. Bozorlarda oziq ovqat mahsullotlarini kim nazorat qiladi:
- SEOvaJSQ (DSENM) xodimlari
- Veterinariya, sanitariya labaratoriyalar
- Bozor qomitasi
- Sotuvchilar

223. Nerv oxirlarida qo'zg'aluvchanlikni o'tishiga yordam beradigan vitamin qaysi:
- B 2 - riboflavin
- B 1 – tiamin
- B 6 - piridoksin
- A – retinol

224. Oqsil sintezi, o'sish va dezintoksikatsiya jarayonlarida qatnashuvchi vitamin:
- B 1 - tiamin
- B 2 – riboflavin
- B 6 - piridoksin
- A – retinol

225. B6 vitaminining vazifasi nimadan iborat:
- ko'ruv qobiliyatini ta'minlaydi
- jigarda aminokislotalar almashinuvida ishtirok etadi
- kaltsiy va fosfor almashinuvida qatnashadi
- qon ivishida qatnashadi

226. A vitaminining vazifasi nimadan iborat:
- jigarda aminokislotalar almashinuvida ishtirok etadi
- ko'ruv qobiliyatini ta'minlaydi
- kaltsiy va fosfor almashinuvida qatnashadi
- qon ivishida qatnashadi

227. D vitaminining vazifasi nimadan iborat:
- jigarda aminokislotalar almashinuvida ishtirok etadi
- kaltsiy va fosfor almashinuvida qatnashadi
- ko'ruv qobiliyatini ta'minlaydi
- qon ivishida qatnashadi

228. K vitaminining vazifasi nimadan iborat:
- jigarda aminokislotalar almashinuvida ishtirok etadi
- qon ivishida qatnashadi
- ko'ruv qobiliyatini ta'minlaydi
- qon yaratilishida qatnashadi

229. Organizmda kletchatkaning ro'li:
- qonda qand miqdorini me'yorlashtiradi
- ichak peristaltikasini kuchaytiradi
- burishtiruvchi ta'sir ko'rsatadi
- ich qotishiga olib keladi

230. Uchburchak tamg'a qanday mol go'shtiga bosiladi:
- kasal mol
- oriq mol
- semiz mol
- xarom o'lgan mol

231. Go'shtda finnalar qanday ko'rinishda bo'ladi:
- tirnoqsimon, oq
- oq rangli, to'g'nog'ich boshchasi ko'rinishida
- pufaksimon, pushti
- pufaksimon, qora

232. Organizmga yod moddasi yetarli tushmaganda qanday kasallik kelib chiqadi:
- kariyes
- endemik buqoq
- flyuoroz
- anemiya

233. ''D'' avitaminozida bolalarda qanday kasallik kelib chiqadi:
- pellagra
- raxit
- beri-beri
- dermatit

234. Oziq - ovqatlarning organoleptik hossalariga nima kirmaydi:

- mazasi ta’mi
- kislotaligi
- konsinstensiyasi
- rangi

235. Qanday oziq-ovqat mahsulotlari vitamin bilan boyitiladi:
- go’sht, kotlet
- non, sharbatlar
- sut, tuxum
- non, qaynoq sho’rvalar

236. Unni mazasini aniqlash usuli:
- elanadi
- chaynab ko’riladi
- xamir qilib, tatib ko’riladi
- filtrat qaynatiladi

237. Yormalarda begona moddalarni ajratib olish uchun nimalar qilinadi:
- filtirlanadi
- elakdan o’tkaziladi
- titrlanadi
- magnit bo’lagi yurgiziladi

238. Bronxial astmada balg’amda topiladi:
- leykotsitlar
- bazofillar
- eozinofillar
- ertrotsitlar

239. Bronxial astmadagi noinfektsion omil:
- bakteriyalar
- changlar
- viruslar
- stafilakokklar

240. Kasbiy bronxial astmada bemorda kuzatiladi:
- inspirator hansirash
- ekspirator hansirash
- aralash hansirash
- apnoe, tsianozlar

241. Ish jarayonida yo’tal xuruji kuzatilganda dastlab qo’llaniladi:
- changli joydan ishchi xodimni olib chiqish
- oyoqlariga xantal qo’yish
- venadan qon chiqarish

- namlangan kislorod berish

242. Astmaning yengil turida xurujlar qanday bo'ladi:
- har kuni
- haftada 1 martadan kam
- haftada 3 marta
- oyda bir marta

243. Bronxit kasalligi ko'p kuzatiladigan kasb egalari:
- konchilar, metallurglar, ip yigiruvchilar
- bo'yoqchilar, shifokorlar
- o'qituvchilar, tsexda ishlovchilar
- oshpazlar, tikuvchilar

244. Bronxial astma xuruji vaqtida bemor holati:
- majburiy (ortopnoe) holati
- o'tirgan
- chalqancha yotgan
- vertikal

245. Dinamometriya – bu:
- mushaklar kuchini aniqlash
- teri sezuvchanligini aniqlash
- tomirlar tonusini aniqlash
- qon bosimini o'lchash

246. Algezimetriya mohiyati:
- sezuvchanlikni aniqlash
- og'riqni aniqlash
- tebranishni aniqlash
- arterial bosimni aniqlash

247. Vibratsiyaning qanday turlari mavjud:
- kompensatsiya va dekompensatsiya
- umumiy va mahalliy
- doimiy va barqaror
- birlamchi va ikkilamchi

248. Organizmda simob to'planadi:
- ona sutida
- terida
- qonda
- so'lakda

249. Qo'rg'oshin bilan zaharlanganda Vitamin " C"ni qabul qilish muddati:

- har kuni
- yil bo’yi
- 1oy davomida
- qabul qilinmaydi

250. Vibratsiyaning vaqt ta’siriga ko’ra turlaridan birining nomi:
- impulsli
- beqaror
- doimiy
- muntazam

251. Ayrim a’zo va sistemalarni zo’riqishi kuzatiladi:
- haydovchilar, yuk tashuvchilarda
- shifokorlar, to’quvchilarda
- konchilar, oshpazlarda
- tikuvchilar, mexaniklarda

252. Qo’rg’oshindan zaharlanganda shoshilinch yordam:
- me’dani yuvish, tozalovchi huqna qilish
- toza havoga olib chiqish
- siqib turgan kiyimlarini bo’shatish
- ensa sohasiga xantal qo’yish

253. Bronxitda balg’am rangi:
- qo’lansa hidli
- zangsimon
- shishasimon
- yiringli

254. Otoskopiyada aniqlanadi:
- tebranishni sezish darajasini o’lchash
- qo’l kuchini o’lchash
- shivirlash metodi
- eshitish nayining o’tkazuvchanligini tekshirish

255. Miofibroz bu:
- mushaklarni cho’zilishi
- mushaklarni yemirilishi
- mushaklardagi og’riqlar
- mushaklardagi qattiqlik

256. Osteoporoz - bu:
- suyak to’qimasining siyraklashuvi
- suyaklarni zichlashishi
- suyakni sinishi

- suyakdagi shishlarni

257. Reovazografiyada aniqlanadi:
- qon tomirlar tonusi
- qon tomirlarni qon bilan ta’minlanishi
- yurak ishi
- kontrast modda yordamida organ joylashuvi

258. Ishlab chiqarish aerozollaridan kelib chiquvchi kasallikni toping:
- katarakta
- radikulit
- sil
- silikoz

259. Kasb kasalliklarini keltirib chiqaruvchi omillarga kirmaydi:
- fizik omillar
- kimyoviy omillar
- biologik omillar
- endogen omillar

260. Kasb kasalliklarini keltirib chiqaruvchi fizik omillar:
- vibratsiya, shovqin, nurlanish
- antibiotiklar, nurlar
- zamburug’lar, vibratsiya
- pnevmokoniozlar, nurlar

261. Kasb kasalliklarini aniqlashda quyidagi qonun qoidalarga amal qilish zarur:
- fizik, kimyoviy, biologik
- fizik, irsiy, biologik
- neyrogen, biologik, mexanik
- endogen, fizik, kimyoviy

262. Biologik omillardan kelib chiquvchi kasallik –bu:
- katarakta
- radikulit
- tebranish
- brutsellyoz

263. Noorganik chang:
- kimyoviy chang
- tsement changi
- metall changi
- shisha changi

264. Irritant (qo’zg’atuvchi) – bu:
- yuqori molekulyar modda
- past molekulyar modda
- shilliq qavatlarni qitiqlovchi modda
- muskullarni mustahkamlovchi modda

265. Granuloma so’zining ma’nosi:
- bo’shliq
- qizarish
- ko’karish
- tuguncha

266. Pnevmokoniozda rentgendagi o’zgarishlar:
- o’pkadagi chandiqlar
- bronxlarning kengayishi
- turli soyalar
- o’pka tasvirining kuchayishi

267. Bronxial astmada zararlanadigan a’zo:
- alveolalar
- bronxlar
- o’pka
- plevra

268. Bronxit - bu:
- bronxlar shilliq qavatlarining yallig’lanishi
- o’pka to’qimasining yallig’lanishi
- bronxlarning torayishi
- nafas yo’llari obstruksiyasi

269. Qaysi tur astmada nafas olish 80 %dan ko’p bo’ladi:
- asoratlanganda
- o’g’ir turida
- yengil turida
- o’rtacha og’ir turida

270. Balg’am ko’chiruvchi preparat:
- libeksin
- aspirin
- ditsinon
- azimak

271. Vibratsiya kasalligi - bu:
- ultaratovush
- mexanik energiyaning insonga ta’siri

- eshitishning buzilishi
- tebranishning insonga ta’siri

272. Vibratsion kasallikda zararlanadigan a’zo:
- suyaklar sistemasi
- asab tizimi
- tomirlar
- biologik faol moddalar

273. Gipoesteziya – bu:
- sezishning pasayishi
- ko’z yoshlarini oqishi
- oyoq-qo’llarni titrashi
- so’lakni oqishini kuchayishi

274. Vibratsion kasallikni tekshirish usullari:
- pallesteziometriya, algezimetriya
- dinamometriya, qon tahlili
- antropometriya, dinamometriya
- EKG, ExoKG

275. Kasb kasalliklariga kiradi:
- surunkali bronxit
- surunkali pnevmoniya
- pnevmokonioz
- havfli o’smalar

276. Mahalliy tebranish kasalligini keltirib chiqaruvchi omillar:
- tananing uzoq vaqt majburiy holatda bo’lishi
- shovqin
- sovuq qotish
- yelka kamarining zo’riqib harakatlanishi

277. Texnika xavfsizlik qoidalariga amal qilinmaganda kuzatiladi:
- zaharlanish
- qon bosimi oshishi
- elektrdan shikastlanish
- teriga toshma toshishi

278. Kasbiy bronxial astmaning rivojlanishida ahamiyatga ega omil:
- changning allergik xususiyatlari
- kasbiy staj
- shamollash kasalliklari
- changning toksikligi

279. Ayrim a’zo va sistemalarning zo’riqishi zaminida kelib chiquvchi kasb kasalligi:
- koxlear nevrit
- yelka epikondiliti
- silikoz
- frontit

280. Qo’rg’oshinning ta’siri bo’lgan kasblar:
- parchinlovchi, shaxter
- harf teruvchi, akkumulator sozlovchi
- traktorchi, mashinist
- agronom-entomolog, akkumulator sozlovchi

281. Qo’rg’oshindan surunkali zaharlanishning patogenezi:
- porfirin va gem biosintezining buzilishi
- organizmda V12 vitaminining yetishmasligi
- qon hosil bo’lishining buzilishi
- organizmda temir tanqisligi

282. Kasbiy anamnez uchun muhim:
- ambulator kartasidan ko’chirma
- o’tkir zahharlanish to’g’risida xabarnoma
- bemorni sub’ektiv tekshirish orqali
- mehnat daftarchasidan nusxa

283. Bronxit asoratida bemor shikoyati:
- bo’g’ilish xurujlari
- nafas chiqarishning qiyinlashishi
- bronxial astma
- jismoniy zo’riqishda hansirash

284. Pnevmokoniozlarning diagnostikasida qo’llaniladigan asosiy usul:
- o’pka rentgenografiyasi
- bronxografiya
- tomografiya
- flyurografiya

285. Kasb kasalliklari fani boshqa qaysi fanlar bilan bog’langan:
- klinik fanlar va mehnat gigiyenasi bilan
- terapiya va mehnat gigiyenasi bilan
- barcha gigiyena fanlari bilan
- barcha klinik fanlar bilan

286. O’tkir kasb kasalliklari kuzatilganda to’ldiriladigan hujjat:
- kasb kasalliklari kartasi

- ambulator karta
- SEOva JSQ(DSENM) ga shoshilinch xabarnoma
- emlash kartasi

287. Ishlab chiqarishda biologik omillar ta’sirida kelib chiquvchi kasb kasallik:
- surunkali changli bronxit
- tuberkulyoz, kandidozlar
- toksik gepatit
- katarakta

288. Changli bronxial astma ko’proq rivojlanadi:
- konchilarda, o’qituvchilarda
- to’quvchilarda, bo’yoqchilarda
- sudyalarda, o’t o’chiruvchilarda
- hamshiralarda, tikuvchilarda

289. Changli bronxial astmaning farqli belgilari:
- tez-tez shamollash, hansirash, kasallikning tez rivojlanishi
- kasallikning tez rivojlanishi, xurujlar bilan kechishi
- asta sekin rivojlanib borish, oxista kechishi, obstruktiv sindromning barvaqt qo’shilishi
- o’tkir boshlanishi, obstruktiv sindromning barvaqt qo’shilishi

290. Pnevmokoniozlarda davriy tibbiy ko’riklar muddati va komissiya tarkibini aniqlang:
- 3 yilda 1 marta terapevt, nevrapatolog, ftiziatr
- yiliga 1 marta terapevt, LOR, ftiziatr, pulmonolog
- yiliga 3 marta terapevt, dermatolog, toksikolog
- yiliga 4 marta terapevt, dermatolog, toksikolog

291. Kasbiy bronxit ko’proq qaysi chang ta’siridan rivojlanadi:
- kremniy dioksidi
- organik chang
- kislota va ishqorlar
- metallar

292. Simob organizmning qaysi a’zolarini zararlaydi:
- ayirish a’zolari
- ovqat hazm qilish tizimi
- asab va nafas tizimi
- tayanch-harakat tizimi

293. Simobdan zaharlanishning klinik belgilari:
- M. A. S yaqqol funksional o’zgarishlari

- angiodistonik sindrom
- o’z holatiga tanqidiy munosabatning kamayishi
- simobli kolika

294. Qo’rg’oshinli sanchiqning rivojlanish mexanizmi:
- xolinreaktiv sistematsiga ta’siri
- sitoxromooksidaza funktsiyasining buzilishi
- vegetativ nerv sistemasi va «quyosh chigali»ning ko’zg’alishi
- xolinesterazaning kamayishi va atsetilxolinning to’planishi

295. Qaysi ishlab chiqarish jarayonlarida simobdan surunkali zaharlanish kuzatiladi:
- termometr, manometr, rentgen trubkalarini ishlab chiqarishda
- bo’yoqlar ishlab chiqarishda
- po’lat ishlab chiqarishda
- lampalar ishlab chiqarishda

296. Kasb kasalliklariga uchragan bemorlarga kasallik varaqasini to’ldirishda o’ziga xos xususiyatlari:
- hujjat qismi, kasbiy anamnez
- hayot anamnezi, allergologik anamnez
- irsiy anamnez, sub’ektiv tekshirish
- ob’ektiv tekshirish, epid anamnez

297. Bemorlarni mehnatga layoqatini aniqlashda quyidagilar hisobga olinmaydi:
- pnevmokoniotik jarayonning qanchalik rivojlanganligi
- nafas olish va yurak – tomir tizimlarining funksional ko’rsatkichlari
- mehnat sharoitlari
- oilaviy ahvoli

298. Vrachlik mehnat ekspertizasi vazifasiga kirmaydi:
- ishchini oldingi ishida qoldirish mumkin yoki mumkin emasligi
- bemorni chang ta’sir qilmaydigan boshqa yengilroq ishga o’tkazish
- nogironlik guruhini aniqlash
- dori vositalariga sezuvchanligini aniqlash

299. Fosfororganik pestitsidlardan o’tkir zaharlanishda antidot vosita sifatida qaysi dorilar qo’llaniladi:
- atropin, dipiroksim, izonitrozin
- kofein, tsititon, eufillin
- GUM, d-PAM, prozerin
- glyukoza, askorbin kislotasi, gemodez

300. Pestitsidlardan o’tkir zaharlanish hollarida bu hodisani kelib chiqish sabablarini kim tekshiradi:
- sanitariya vrachi
- agronom- entomolog
- feldsher
- bosh shifokor

301. Pnevmokoniozni tashxislashda tekshirilishi lozim bo’lgan usul:
- o’pka rentgenografiyasi, TNF
- tomografiya, TNF
- TNF, qonning umumiy analizi, EKG
- siydik va balg’am analizi

302. Pnevmokoniozlarni tasniflash printsipi:
- klinik
- patomorfologik
- etiologik
- rentgenoskopik

303. Xlororganik birikmalarning ta’sirida qaysi organ va sistemalar jarohatlanadi:
- MNS, qon hosil qilish, buyrak
- nerv sistemasi, buyrak, siydik yo’llari
- MNS, jigar, oshqozon-ichak yo’li
- teri, shilliq qavati, soch

304. Fosfororganik pestitsidlardan o’tkir zaharlanishda nikotin ta’siriga xos simptomlarni ko’rsating:
- qorinda og’riq, uyqusirash, tortishish
- ko’z, til yuz va tana mushaklarining fibrillyar tortishi
- ko’nglil aynashi, qayt qilish, qorindagi og’riq
- qon bosmining oshishi, ichak sanchig’i

305. Internat maktablarida 1000 ta bolaning ovqatlanishi uchun nechta o’rin tashkil qilish kerak:
- 180ta
- 200ta
- 250ta
- 500ta

306. Bizning Respublikada iqlim sharoitida yoz kunlarida o’rtacha suvga bo’lgan fiziologik ehtiyoj qanday:
- 12 litr dan ortiq
- 5-6 litr kerak
- 1,5-2 litr kerak

- 10-12 litr

307. Tish kasalliklarini oldini olish maqsadida stomatologga qachon borish kerak:
- har 3 oyda
- har yilda
- yiliga 2– 3 marta
- 1 yilda 1marta

308. “Bolalarning tibbiyot varaqasi” nomeri:
- 086/Y
- 026/Y
- 084/Y
- 032/Y

309. Odam organizmiga ta’sir ko’rsatadigan tashqi muhit omillari nechta guruhga bo’linadi:
- fizik va kimyoviy omillar
- fizik kimyoviy va radiologik
- fizik biologik, psixogen
- fizik, kimyoviy, biologik, ijtimoiy psixogen

310. Yerning yuza qismidagi mikroblar eng ko’p joylashgan qatlami necha “sm”ni tashkil qiladi:
- 1 sm dan 10 smgacha
- 20 sm
- 2-3 sm
- 15-20 sm

311. Spora hosil qilmaydigan patogen mikroblar qanday chiqindilarda uchramaydi:
- najas
- hayvon chiqindilarida
- murdada
- atmosfera havosida

312. Tuproqda uzoq yashab spora hosil qiluvchi mikroorganizmlarga kiradi:
- kuydirgi qo’zg’atuvchisi
- vabo vibrioni
- sil tayoqchasi
- gonokokk

313. Kuydirgi bakteriyasining sporasi tuproqda qancha muddat yashaydi:
- bir necha o’n yilgacha
- bir necha yuz yilgacha

- bir necha oy
- bir necha haftagacha

314. Juda ifloslangan tuproqda sanitariya soni:
- 0,70 dan kam
- 0,120-0,130
- 0,20 dan kam
- 0,80dan 0,110 gacha

315. Tuproqning yuza suvlarini o'ziga shimib olish xususiyati nima deyiladi:
- tuproqning havo o'tkazuvchanligi
- tuproqning g'ovakligi
- tuproqning suv o'tkazuvchanligi
- tuproqdagi suv sig'imi

316. Tuproqda organik moddalarning parchalanishi qanday bosqichda o'tadi:
- mineralizatsiya, nitrifikatsiya
- anaerob, aerob
- gumus hosil bo'lishi
- oksidlanish, parchalanish

317. Tuproqdan sinama olishda qanday kattalikdagi maydon olinadi:
- 1 gektar
- 1 akr
- 50 m2
- 25 m2

318. Tuproqda organik moddalarning mineralizatsiyasi qanday sharoitda kechadi:
- quruq, namli
- aerob, anaerob
- kislotali, ishqorli
- issiq, sovuq

319. Tuproqning gumus tarkibidagi oqsil azoti miqdorining tuproqdagi organik azot miqdoriga nisbati deganda nima tushuniladi:
- sanitariya soni
- koli - titr
- tuproqdagi gijja tuxumlari
- chiqindilar

320. Bir yilda kishi boshiga yig'iladigan qattiq ahlat miqdori o'rtacha qancha massani tashkil qiladi:
- 100 kg
- 200 kg

- 500 kg
- 600 kg

321. Ahlatxonalar aholi yashaydigan yerdan kamida qancha masofada bo’lishi kerak:
- 200 m
- 300 m
- 0,5 km
- 400 m

322. Yoritilish birligi nima bilan belgilanadi:
- vatt
- volt
- lyuks
- amper

323. Yoritilganlik qaysi asbob bilan aniqlanadi:
- lyuksmetr
- voltmetr
- termometr
- ampermetr

324. Yozda turar joylarda eng mo’tadil havo temperaturasi qancha bo’lishi kerak:
- 30-32°C
- 28-30°C
- 18-20°C
- 32-34°C

325. Bir kishi uchun mo’ljallangan minimal turar joy maydoni qancha:
- 9 m2
- 12 m2
- 24 m2
- 1 gektar

326. Loyihalarning qanaqa turlari mavjud:
- tipovoy, eksperimental, individual
- individual, qavatli
- eksperimental, rejali
- tipovoy, rejali, shaxsiy

327. Tranport shovqini qanday shovqin hisoblanadi:
- doimiy
- impulsli
- nodoimiy

- uzilib turuvchi

328. Shahar shovqiniga qarshi kurashish uchun qanday ishlar bajariladi:
- me’morchilik va loyihalash ishlari olib borish
- texnik choralar ko’rish
- tarbiyaviy ishlar olib borish
- aholini ogohlantirish

329. Qaysi asbob yordamida shovqin kuchi o’lchanadi:
- shumomer
- anemometr
- aktinometr
- lyuksmetr

330. Yorug’lik koeffitsenti nima:
- derazalar oyna solingan qismini pol maydoniga ko’paytmasi
- derazalarning oyna solingan yuzasini pol maydoniga nisbati
- pol maydonini derazalar yuzasiga nisbati
- derazalarning oynalangan yuzasini polga nisbati

331. Xona ichi yoritilganligining ayni vaqtda xonadan tashqaridagi yoritilganlikka foizlarda ifodalangan nisbati nima deyiladi:
- yorug’lik koeffitsienti
- tabiiy yorug’lik koeffitsienti
- tabiiy yorug’lik
- tushish burchagi

332. Turar-joylarning yordamchi xonalariga nimalar kiradi:
- yo’lak, hojatxona, hammom, oshxona, ayvon
- mehmonxona, dam olish xonasi
- ayvon, bolalar xonasi
- yotoqxona, yo’lak, hammom

333. Xonalarning balandligi necha metr bo’lishi kerak:
- 2.3-3.0m
- 3-4m
- 2.7-3.2m
- 2.7-3.5m

334. Shahar aholisi qanday guruhdan tashkil topgan:
- asosiy, xizmat ko’rsatuvchi, ishga yaroqsiz kishilar
- asosiy, chorvadorlar, ishga yaroqsiz kishilar
- xizmat ko’rsatuvchi, fermerlar, talabalar
- asosiy, nogironlar, talabalar, dehqonlar

335. Yotoqxonalarning qanday turlari mavjud:
- talabalar, nuroniylar, erkaklar
- oilaviy, ishchilar, talabalar, o’quvchi-yoshlar
- ishchilar, oilaviy, sportchilar
- o’quvchi – yoshlar, ayollar, qariyalar

336. Kechqurun xonadonlarda yo’l qo’yiladigan shovqinning miqdori:
- 30 DB dan oshmasligi kerak
- 40 DB dan oshmasligi kerak
- 50 DB dan oshmasligi kerak
- 60 DB dan oshmasligi kerak

337. Turar joylarni isitishning qanday turlari mavjud:
- umumiy va xususiy
- mahalliy va markaziy
- umumiy va aralash
- doimiy va vaqtinchalik

338. Derazalardagi pardalar necha foiz yorug’likni singdirishi mumkin:
- 20 %
- 40 %
- 60 %
- 80 %

339. Radiatsiyadan himoya qilishning ma’qul usuli:
- maxsus kiyim va niqoblar turli himoya vositalari
- rezina etik, xalat, niqob, spirtli eritmalar
- qo’lqoplar, kamzul, himoya ko’zoynagi, erituvchi vositalar
- xalat, kombinezon, dez vositalar

340. Radiatsion moddalar odam organizmiga qaysi yo’l bilan tushadi:
- nafas yo’llari orqali
- ko’z orqali
- teri orqali
- quloqlar orqali

341. Radiatsion kasallikning simptomlari qanday:
- umumiy holsizlik, ko’ngil aynishi, bosh aylanishi
- tana temperaturasining ko’tarilishi, uyquchanlik
- terining og’riqli jarohatlari
- ich ketishi, qusish, holsizlik

342. Qanday oziq ovqat maxsulotlari radiatsiyaga ta’sirchan:
- sabzavotlar va mevalar
- konserva mahsulotlari

- dengiz oziqa mahsulotlari
- go’sht va go’sht mahsulotlari

343. Radiatsiyaning odam organizmiga ta’siri qanday:
- radiatsiyaning eng kam do’zasi odam uchun xavfsiz
- radiatsiya har doim organism uchun xavfli
- radiatsiya yupqa plastik qatlamdan o’tmaydi
- radiatsiyaning har qanday dozasi odam uchun xavfsiz

344. Nurlanish qanday asbob bilan o’lchanadi:
- radiometr
- dozimetr
- gigrometr
- barometr

345. Nur radiatsiyasini aniqlash uchun qaysi asbobdan foydalaniladi:
- dinamometr
- aneroid-barometr
- anemometr
- kalitin aktinometri

346. Qanday qurilmalar ishlovchilar salomatligiga zararli ta’sir ko’rsatadi:
- sistemali blok
- printer
- monitor
- modem

347. Monitorga qanday qarash kerak:
- chapdan o’ngga
- pastdan tepaga
- tepadan pastga
- o’ngdan chapga

348. Zararli maksimal nurlanish monitordan qaysi yo’nalishda chiqadi:
- ekrandan pastga qarab
- ekrandan oldinga
- ekrandan yuqoriga
- ekrandan orqaga

349. Infraqizil nurlanish ta’sirida qaysi ko’z kasalliklari vujudga keladi:
- katarakta
- elektrooftalmiya
- miopiya
- glaucoma

350. Gamma nurlanish bu:
- yadrolardan fotonlar chiqarilishi
- yadrolardan neytronlar chiqarilishi
- yadrolardan neytronlar chiqarilmasligi
- ionlantiruvchi nurlanish manbayi

351. Zanjirli reaksiya nima:
- og'ir elementlar yadrolarining izchil yangi elementlar paydo qilgan holda o'z-o'zidan radioaktiv bo'linishi
- alfa-faol parchalanish bilan o'zaro bog'liq reaksiyalar
- beta-zarrachalar ajratiladigan bir qator reaksiyalar
- kimyoviy o'zgarishlar zanjiri

352. Ultrabinafsha nurlanish ta'sirida ko'zda vujudga keluvchi o'tkir kasalliklar:
- katarakta
- blefarit
- iridotsiklit
- elektrooftalmiya

353. Akseleratsiya bu:
- moddalar almashinuvining tezlashish
- o'sish va rivojlanishning susayishi
- o'sish va rivojlanish sur'atining tezlashuvi
- bosh miya hajmining kattalashuvi

354. Bolalar muassasalarida yorug'lik koeffitsienti qancha bo'lishi kerak:
- 1:3
- 1:4 va 1:5
- 1:6 va 1:7
- 1:6 va 1:8

355. Chaqaloqlarni tibbiy ko'rikdan qaysi muddatlarda o'tkazish kerak:
- har oyda 1 marta
- har 6 oyda
- 1yilda 1 marta
- kasal bo'lganda

356. 5-6 sinf o'quvchilari uchun uy vazifalarining hajmi necha soatga mo'ljallanadi:
- 2 soat
- 2,5 soat
- 1 soat
- 1,5 soat

357. Skolioz nima:
- umurtqa pog’onasining patologik qiyshayishi
- oyoq suyaklarinig qiyshayishi
- o’pkada chang ta’sirida kelib chiqadigan kasallik
- tana suyaklarinig jadal o’sishi

358. Mehnat gigiyenasi fani nimani o’rganadi:
- mehnat sharoitini sog’lomlashtirishga ta’sirini
- mehnat sharoitini mehnatkashlar sog’lig’iga ta’sirini
- mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan sanitariya-gigiyena tadbirlarini
- mehnat tufayli kelib chiqadigan kasalliklarni

359. Davalat sanitariya-epidemiologiya xizmatini kim boshqaradi:
- vazirlar kengashi
- O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash vazirligi
- bosh davlat sanitariya shifokori
- DSENM (SEO va JSQ)

360. Mehnat gigiyenasining asosiy vazifasi:
- ish sharoitini yaxshilash
- ish sharoitini yaxshilash, ish unumdorligini oshirish, ish qobiliyatini saqlash, kasalliklar sonini kamaytirish
- mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan sanitariya-gigiyena tadbirlarini
- zaharlanishlarni oldini olish

361. Mehnat gigiyenasida quyida keltirilgan tekshiruvlar:
- san-gigienik, fiziologik, eksperimental, statistik
- matematik, kimyoviy, so’roq orqali
- texnologik, fizikaviy, klinik
- kuzatish, toksikologik, laboratoriya

362. Ishlab chiqarish omillari qanday guruhlarga bo’linadi:
- fizikaviy, kimyoviy, biologik, ruhiy-fiziologik
- texnologik, doimiy, o’zgaruvchan
- umumiy va xususiy ta’sir etuvchilar, tabiiy
- sotsial, maishiy, iqtisodiy

363. Statik ish bu:
- aqliy ish
- odamning tanasini xolatini o’zgartirmasdan ishlashi
- jismoniy ish
- konveyer

364. Ishchining ish vaqtidagi ish qobiliyatini tekshirishga nima deyiladi:
- aqliy

- jismoniy
- eksperimental
- xronometraj

365. Mehnat jarayonida pulsning tezlashishi qanday ataladi:
- taxikardiya
- bradikardiya
- stenokardiya
- taxipnoe

366. Gipertermiyani oldini olish uchun olib boriladigan chora-tadbirlar:
- ichimlik suvi
- mexanizatsiya va avtomatizatsiya
- individual himoya vositasi
- mexanizatsiya va avtomatizatsiya, ichimlik suvi, individual himoya vositasi, ventilyatsiya, tibbiy ko'rik

367. Charchash – bu:
- dinamik stereotipni buzilishi
- ish bajarishda ish qobiliyatining vaqtinchalik to'xtashi
- organ va sistemalardagi funktsional o'zgarishlar
- MNS da innertsion tormozlanish

368. Chidamlilik ko'rsatkichi:
- ma'lum bir kuch bilan bajarilayotgan ishga ketgan vaqt
- ma'lum bir ish vaqtida yukning og'irligini ko'tarishi
- stress holatlarida organizmning himoyalash qobiliyati
- noqulay ish sharoitida ishlash vaqti

369. Charchashni ob'ektiv belgilari:
- charchash
- mehnat jarayonida unumdorlilik sifatining kamayishi
- toliqish
- ishchilarda organlar faoliyati va tizimlar holatidagi funktsional ko'rsatkichlarning o'zgarishi

370. Ishlab chiqarishda metereologik omillar deganda nimani tushunasiz:
- bosim, shovqin, tebranish
- atmosfera bosimi, namlik
- harorat, namlik, havo harakat tezligi, issiqlik energiyasi
- havo harorati

371. Ochiq sharoitda ishlovchilar qanday haroratda ishni to'xtatishlari kerak:
- 30ºC dan -25ºC gacha
- 40ºC dan + 53ºC gacha

- 40ºC dan -30ºC gacha
- 32ºC dan -40ºC gacha

372. Havo dushi qaysi korxonalarda qo'llaniladi:
- issiq korxonalarda
- sovuq korxonalarda
- ochiq havoda
- shovqinli korxonalarda

373. Havo harorati qaysi birlikda o'lchanadi:
- kal/sm3 min
- Tselsiy gradus (0C)
- kkal
- vatt

374. Loyihadagi mikroiqlimni mehnat gigiyenasi shifokori nima bilan taqqoslashi kerak:
- optimal sanitar me'yor bilan
- ruxsat etilgan yuqori chegara bilan
- ruxsat etilgan quyi chegara bilan
- o'rtacha ko'rsatkichlar bilan

375. Quyida keltirilgan masalalarni hal etishda chang miqdori aniqlanadi:
- obyekt sanitariya holatini taxlili
- ishni og'irligi va jiddiyligini baxolash
- chang dispersligini aniqlash
- ish holatini baxolash

376. Qanday vaziyatlarda yorug'likka chanqoqlik hosil bo'lish ehtimoli bor va uning sabablari:
- tungi smenada ishlash, yorug'likni yetishmasligi
- er osti ishlarida tabiiy yoritilish yo'q, xonalarda UB nurlari yetishmasligi
- yopiq xonalarida ish joylari bo'lsa
- issiq iqlim, ortiqcha infraqizil nurlanish

377. Atmosfera bosimining me'yori qancha:
- 760 mm simob ustuni
- 870 mm simob ustuni
- 340mm simob ustuni
- 550 mm simob ustuni

378. Qaysi kasb egalari yuqori atmosfera bosimi sharoitida ishlaydilar:
- geologlar, uchuvchilar
- alpinistlar, tog'dagi qidiruv ishlari bilan shug'ullanuvchilar
- g'avvoslar, shaxtyorlar, metropoliten xodimlari

- issiq havoli konxonada ishlaydiganlar

379. Pnevmokonoizda o’pka zararlanishidan tashqari yana qaysi tizimlarda o’zgarishlarni kuzatish mumkin:
- nerv, yurak qon- tomir, limfa
- infeksion kasalliklar
- onkologik kasalliklar
- bo’g’im kasalliklari

380. Pnevmokanioz ta’sirida kelib chiqadigan pnevmosklerozning qanday turinini bilasiz:
- bronxit
- astmoid
- tugunli va diffuz sklerotik
- kavernoz

381. Shisha, kvarts changi ta’sirida pnevmokaniozning qaysi turi rivojlanadi:
- asbestoz
- silikoz va silikatoz
- silikoz
- antrakoz

382. Ishchining nafas olish organida chang yuklamasi qanday aniqlanadi:
- ish staji vaqtida chang massasining yig’indisi
- ma’lum vaqt ichida (smena, oy, yil, staj) ishchilar organizmiga nafas yo’li orqali kiradigan changlarning umumiy miqdori
- ish zonasidagi chagnning maksimal miqdori
- ish zonasi havosidagi changning minimal miqdori

383. O’simliklar ta’sirida organizmda qaysi effekt yetakchi hisoblanadi:
- fibrinogen
- toksik
- embriotrop
- allergik

384. Fibrogen aerozollari orasida qaysilari xavfli:
- tarkibida kremniy dioksid borlari
- suvda yaxshi eruvchilari
- suvda yomon eruvchilari
- katta og’irlikka ega va zaryadlanganlari

385. Chang organizmga ta’siri oqibatida qanday og’ir kasalliklar kelib chiqadi:
- bronxit
- pnevmoniya

- kolit
- pnevmokanioz

386. Simobni uzoq vaqt ta’sirida qanday kasalliklar kelib chiqishi mumkin:
- satrunizm
- pnevmokanioz
- merkurializm
- bitsinoz

387. Quyidagi keltirilgan chora-tadbirlarni qaysi biri tadbiq etilganda kimyoviy moddalarni ishlovchiga ta’siri yo’qoladi:
- kompleks mexanizatsiyalash
- ventilyatsiya
- masofadan boshqarish
- SHXV bilan ta’minlash

388. Mehnat gigiyenasi shifokori surunkali kasbiy kasalliklar(zaxarlanish) to’g’risidagi yakuniy diagnoz qo’yilganlik xabari olgan paytdan qancha vaqt davomida taftish olib borishi mumkin:
- 1 sutkagacha
- 7 sutkagacha
- 10 kun
- mehnat gigiyenasi vrachi bo’sh vaqtini xisobga olib

389. Charchash tashxisi usullari:
- obyektiv, subyektiv
- asbob-uskunalar yordamida tekshirish
- miqdor,sifat
- statistik

390. O’tkaziladigan fiziologik tekshiruvlar hajmi nimaga bog’liq:
- bajarilayotgan ish tavsifi va ish sharoiti
- ish staji, jinsi, ishiga
- yil fasli, ishchining individual xolati
- davriy tibbiy ko’riklar natijasiga

391. Xronometraj usulini o’tkazish uchun kerakli vositalar:
- shumomer
- sekundomer
- aktinometr
- psixrometr

392. Xronometraj kuzatuvlarini kim o’tkazadi:
- korxona ma‘muriyati vakili
- korxona shifokori

- kasaba uyushmasi vakili
- SEOvaJSQ sanitar shifokori

393. Mehnat og'irligi bo'yicha ergometrik kriteriyalari:
- signallarni zichligi
- nafas olishda 1 minutli xajm
- ish vaqti
- yukni og'irligi, ishni quvvati va ishchi holati

394. Mehnat og'irligi bo'yicha ergometrik kriteriylariga kirmaydi:
- ishchi holati
- nafas olishda 1 minutli xajm va tanaffus vaqti
- yukni og'irligi
- ishni quvvati

395. Mehnat keskinligi bo'yicha ergometrik kriteriylari:
- ko'z bilan bajariladigan ish kategoriyasi
- monotonlik
- signallarni zichligi
- tabiiy yoritilganlikni yo'qligi

396. Qaysi tovush standart tovush hisoblanadi:
- 100 Gts
- 1500 Gts
- 1000 Gts
- 500 Gts

397. Qanday kasalxonalar shahar tashqarisida joylashtirilishi tavsiya qilinadi:
- sil, psixonevrologik, bolalar
- sil, bolalar, tug'ruqxonalar
- psixonevrologik, tug'ruqxonalar, bolalar yuqumli kasalliklari
- sil, psixonevrologik

398. DPM larda havoning kimyoviy tarkibi bo'yicha baholash kriteriyasi hisoblanadi:
- o'rtacha kunlik va maksimal bir martalik konsenratsiyasi
- o'rtacha kunlik va maksimal bir martalik konsenratsiyasi va REM
- maksimal bir martalik, SO2tarkibi bo'yicha o'rtacha kunlik REM
- maksimal bir martalik ifloslanish konsentratsiyasi

399. Texnologik jarayonni almashtirish yo'li bilan zararli moddalarni atmosferaga chiqarib tashlashni kamaytirish yoki yo'q qilish qaysi chora – tadbirlarga kiradi:
- umumiy
- texnologik

- rejalshtiruvchi
- sanitar – texnik

400. Odam organizmiga ta’sir ko’rsatuvchi tashqi muhit omillari:
- fizik, kimyoviy, biologik, psixogen, jismoniy
- mehnat sharoiti
- maishiy, ijtimoiy- iqtisodiy
- gidrometeorologik,fizik

401. Havo namligi qaysi asbob yordamida o’lchanadi:
- psixrometr
- shumomer
- katatermometr
- aktinometr

402. Quyosh spektirining qanday qismi antiraxitik va bakteriotsid ta’sirga ega:
- ultrabinafsha nurlar
- lazer nurlari
- ko’riladigan nurlar
- rentgen nurlari

403. Xona havosidagi nisbiy namlikni gigienik me’yori:
- 40 – 60%
- 50 – 70%
- 20 – 30%
- 30-40 %

404. Xonadagi havo harakat tezligini gigienik me’yori:
- 0,1 – 0,2 m/s
- 0,2 – 0,4 m/s
- 0,4 – 0,8 m/s
- 0,3- 0,4 m/s

405. Tabiiy yoritilishga qo’yiladigan gigiyenik talablar:
- deraza o’lchami, bino orasidagi masofa, oyna sifati, devor va polning bo’yalishi, derazalarning joylashuvi
- yorug’lik koeffitsenti
- ish joyidagi yoritilganlik, lampaning quvvati
- kechki yoritilganlik

406. Inson qaysi chastotadagi tovush to’lqinlarini qabul qiladi:
- 16 Gs dan 20000 Gs gacha
- 2 G dan 2000 Gs gacha
- 1200 Gs gacha

- 160 Gs gacha

407. Inson eshitish organi uchun qaysi chastotadagi tovushlar xavfli hisoblanadi:
- yuqori chastotali
- past chastotali
- ahamiyatga ega emas
- ish joyidagi tovushlar

408. Ish tartibiga kiritilgan holda qaysi hollarda isinish va dam olish uchun maxsus tanaffuslar beriladi:
- yilning sovuq davrida tashqi muhitda va sovuq isitilmaydigan xonalarda ish bajarishda
- chegaralanmagan ish bajarishda
- ish vaqti qismlarga bo'linganda
- yollanma ish bajarishda

409. Bolalar va o'smirlar gigienasi fani nimani o'rganadi:
- yosh avlodning salomatligi, kasallanishi va kasallikni oldini olishni
- yosh organizmni jismoniy tarbiyalash va chiniqtirishni
- o'sib kelayotgan avlodning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, ularni jismoniy sog'lom qilib tayyorlashni
- o'sib kelayotgan avlodni – mehnat, ta'lim-tarbiya va hunarga jalb etishni

410. Bolalik qaysi davrlarga bo'linadi:
- chaqaloqlik davri, go'daklik davri, o'smirlik davri
- go'daklik davri, maktab yoshi, balog'at davri
- maktab yoshigacha bo'lgan davri, maktab yoshi va o'smirlik davri
- chaqaloqlik davri, emiziklik davri va balog'at davri

411. Bolalar va o'smirlar gigienasi O'zbekistonda qachon tuzilgan:
- 1923-yilda
- 1930-yilda
- 1932-yilda
- 1938-yilda

412. Bolalar sog'lig'ini belgilovchi tabiiy omillarni ko'rsating:
- irsiy, vaqtidan ilgari tug'ilgan
- iqtisodiy sharoitlar, tizim, mehnat
- atrof-muhit, ekologiya, iqlim
- tarbiya, o'qitish, ovqatlanish

413. Bolalar sog'lig'ini belgilovchi sanitariya-gigiyenik omillarni ko'rsating:
- iqtisodiy sharoitlar, tizim, mehnat
- atrof-muhit, ekologiya, iqlim

- irsiy, vaqtidan ilgari tug’ilgan
- tarbiya, o’qitish, ovqatlanish

414. Bolalar va o’smirlar gigiyenasi fani qaysi fanlar bilan bog’liq:
- biologiya, morfologiya, fiziologiya, gigiyena, astronomiya
- biologiya, fizologiya, morfologiya, pediatriya, endokrinologiya, oftalmologiya, nevrologiya
- morfologiya, fiziologiya, otorinoloringologiya
- travmatologiya, ginekologiya, radiologiya

415. Maktabgacha yoshdagi bolalar oqsil, uglevod va yog’ga nisbatan qancha qiymatni tashkil qiladi:
- 1:1:4
- 1:1:3
- 1: 1:2
- 1:2:3

416. Bolalarning miya yarim sharlari necha yoshda tezroq ishlay boshlaydi:
- 5-7 yoshida fikrlashi ustun bo’lib, o’ng miya yarim shari yaxshi ishlaydi
- 5-6 yoshda analizator sistemalari ahamiyati katta bo’lib, o’ng miya yarim shari chapga qaraganda nisbatan tezroq ishlaydi
- 5-8 yoshida analizator sistema ahamiyati katta bo’ladi
- 3 yoshda

417. 1-2-3 sinf o’quvchilari uchun bir haftalik yuklama qancha:
- 24 soat
- 27soat
- 32soat
- 33soat

418. 15 yoshga to’lgan maktab, kollej o’quvchilari uchun bitta o’smirlar shifokoriga nechta o’smir to’g’ri keladi:
- 800
- 1000
- 1500
- 2000

419. Umumta’lim maktablarida hafta mobaynida o’quv soatlari 8 sinflar uchun qanday belgilangan:
- 22 soat
- 28 soat
- 30 soat
- 32 soat

420. Maktab shifokori kasb tanlash tadbirlarini nechanchi sinfdan boshlab o’tkazishi kerak:
- 2-3 sinflardan
- 4-5 sinflardan
- 6-7 sinflardan
- 9 – sinflardan

421. Uchinchi o’quv yili oxirida o’qish tezligi qanday bo’lishi kerak:
- bir daqiqada 40-50 ta so’z
- bir daqiqada 60-70 ta so’z
- bir daqiqada 80-90 ta so’z
- bir daqiqada 100 ta so’z

422. Tibbiy ko’riklar o’tkazish tartibi qaysi variantda to’g’ri ko’rsatilgan:
- maktabgacha tarbiya muassasalarida yilda ikki marta, maktablarda bir marta
- maktabgacha tarbiya muassasalarida yilda 4 marta, maktablarda 2 marta
- yilda bir marta
- har oyda bir marta

423. Birinchi o’quv yilida o’qish tezligi bo’lishi kerak:
- bir daqiqada 40-50 ta so’z
- bir daqiqada 60-70 ta so’z
- bir daqiqada 80-90 ta so’z
- bir daqiqada 100 ta so’z

424. Jismoniy rivojlanishning somatometrik belgilariga nimalar kiradi:
- tana vazni, o’pkaning tiriklik sig’imi
- bo’y, ko’krak qafasi aylanasi
- qo’lning mushak kuchi
- bo’y, tana vazni, ko’krak qafasi aylanasi

425. Spirometr asbobi qachon ishlatiladi:
- o’pkaning tiriklik sig’imini aniqlash uchun
- tana vaznini o’lchash uchun
- qo’l mushaklarini kuchini aniqlash uchun
- yog’ to’qimasi qalinligini aniqlash uchun

426. Bolaning bo’yi yiliga necha cm ga o’sadi:
- 10 cm
- 15 cm
- 2-4 cm
- 25 cm

427. Dinamometr yordamida nima aniqlanadi:
- qon bosimi o’lchanadi

- bo’y uzunligi o’lchanadi
- ko’krak qafasi aylanasi aniqlanadi
- qo’l panjalarini siqish kuchi aniqlanadi

428. O’pkaning tiriklik sig’imini o’lchaydigan asbob nima deb ataladi:
- tonometr
- dinamometr
- fonendoskop
- spirometr

429. Bolalarda miopiya -uzoqni ko’ra olmaslikning yuzaga kelishi va rivojlanishi sabablaridan biri:
- kislorodning yetishmasligi
- issiqlikning oshib ketishi
- aeratsiyaning yo’qligi
- yorug’likning yetishmasligi

430. Bolalarga qanday e’tibor qaratish kerak:
- ko’proq ochiq havoda bo’lishi, kun tartibida sayrga chiqish
- qulay joy yaratish
- salqinlik, ochiq havoda ko’p aylanmaslik
- o’zi xoxlagan ishga ruxsat berish

431. Kichik yoshdagi guruh bolalar kun tartibida uyquning normasi:
- 12-12,5 soat 2 soati kunduzgi uyqu
- 11-11,5 soat 1 soati kunduzgi uyqu
- 10-10,5 soat 0,5 soati kunduzgi uyqu
- 9-10 soat 1,5 soat kunduzgi uyqi

432. Bolalar ochiq havoda kun mobaynida necha soatdan va qaysi fasllarda yurishlari kerak:
- bahor, yozda 6-8 soat, kuz, qishda 4 soatdan
- bahor, yozda 5-7 soat, kuz, qishda 3 soatdan
- bahor, yozda 4-6 soat, kuz, qishda 2 soatdan
- bahor, yozda 7-9 soat, kuz, qishda 1 soatdan

433. Ertalabki nonushta necha % ni tashkil etadi:
- bu sutkalik energiyaning 20-25 % ni
- bu sutkalik energiyaning 10-15 % ni
- bu sutkalik energiyaning 5-10 % ni
- bu sutkalik energiyaning 35 % ni

434. Bolalar muassasalarida taomnomani tuzishda kimlar ishtirok etadi:
- oshpaz, tarbiyachi, bog’cha mudiri
- vrach, bog’cha mudiri, enaga

- vrach, oshpaz, bog’cha mudiri
- vrach, oshpaz, tarbiyachi

435. Bolalarda nutq nechta bosqichda bajariladi:
- 5
- 3
- 2
- 4

436. To’garak mashg’ulotlari uchun o’quvchi haftada qancha vaqt sarflashi kerak:
- 1-2 soat
- 4-6 soat
- 6-8 soat
- 2-4 soat

437. Qaysi vitaminga o’sish vitamini deyiladi:
- B vitamini
- C vitamini
- A vitamini
- D vitamin

438. D vitamining vazifasi:
- organizmda kalsiy va fosfor almashinuvini normallashtirish
- fosfor miqdori ko’paytiradi
- bo’y o’sishiga yordam beradi
- ovqatlanish tartibini nazorat qiladi

439. Qanday materialdan tayyorlangan o’yinchoqlar yangiligida ishlatiladi:
- yog’och, karton
- plastmassa
- temir
- rezina, gazlama

440. Qanday gazlamalardan tayyorlangan ichki kiyimlar bolalar uchun tavsiya qilinmaydi:
- neylon va kapron
- surp va neylon
- ipak
- viskozali trikotaj

441. Qaysi holatda bolalarga sun’iy toladan to’qilgan paypoqlar kiyish qat’iyan man etiladi:
- raxit bilan og’rigan bolalarga
- shamollagan bolalarga

- yo’talayotgan bolalarga
- revmatizm, buyrak, va allergik kasalliklari bilan og’rigan bolalarga

442. Bolalarning ichki kiyimlari qanday gazlamalardan tikiladi:
- surp, atlas, ipli trikotaj gazlamalaridan
- surp, drap, va jun gazlamalaridan
- lavsan, sintetik va tabiiy ipakli gazlamalaridan
- surp, jun va ipli trikotaj gazlamalaridan

443. Tovush chiqaruvchi o’yinchoqlarda shovqin kuchi qancha bo’lishi kerak:
- 50 sm masofada 65 db dan oshmasligi kerak
- 50 sm masofada 45 db dan oshmasligi kerak
- 50 sm masofada 80 db dan oshmasligi kerak
- 50 sm masofada 100 db dan oshmasligi kerak

444. Bolalardagi somotometrik ko’rsatkichlarga nimalar kiradi:
- bo’yi uzunligi, vazni, ko’krak qafasi aylanasi
- o’pkaning tiriklik sig’imi
- yurak qisqarishi chastotasi
- umrtqa po’g’onasining uzunligi

445. Bolalarda fiziometrik funksional ko’rsatkichlar:
- qaddi-qomat tuzulishi
- umrtqa pog’onasi shakli
- o’pka tiriklik sig’imi, qo’l, bel mushaklarining kuchi
- ko’krak qafasi aylanasi

446. Qiz bolalarda organizmning jadal o’sishi necha yoshdan boshlanadi:
- 8 yoshdan
- 10 yoshdan
- 12 yoshdan
- 14 yoshdan

447. Bolalar muassasalari qanday joyga qurilishi kerak:
- aholi yashaydigan joyga yaqin, zavodlardan, temir yo’l va bozorlardan uzoqroq joyga
- aholi yashaydigan va bozorlarga yaqin joyga
- aholi yashaydigan, bozorlarga yaqin, lekin yong’indan saqlovchi korxonlardan uzoqroq joyga
- zavod va fabrikalarga, temir yo’lga yaqin joyga

448. Chiniqish mulojalari turkumiga quyidagilar kiradi:
- suv muolajalari, quyosh nurlari, ratsional ovqatlanish
- havo vannalari, suv muolajalari, yaxshi uyqu
- havo vannalari, suv muolajalari, quyosh nurlari va sun’iy nurlar

- nurlari, jismoniy mashqlar, yaxshi uyqu va ratsional ovqatlanish

449. Bolalar organizmiga quyosh nuri yetishmasa qanday kasallik kelib chiqadi:
- anemiya
- bo’qoq
- raxit
- karies

450. Bolaning tana vazni ortiqcha bo’lganda maktab vrachining taktikasi:
- ratsional ovqatlanish, pediatr maslahati
- jismoniy tarbiya bilan shug’ullanish, ratsional ovqatlanish
- o’quv mashg’ulotlarining adekvat tartibi, toza havoda harakatli o’yinlar
- endokrinolog maslahati, ovqatlanishni korrektsiyalash, ratsional harakat tartibi

451. Chaqaloq qachondan boshlab boshini ko’tara boshlaydi:
- 6-7 xaftalik
- 6 oylik
- tug’ilishi bilan
- 3 oylik

452. Jinsiy balog’atga yetish davri nima deb ataladi:
- voyaga yetish davri
- jinsiy yetilish davri
- yetuklik davri
- pubertat davri

453. Skolioz kasalligiga ta’rif bering:
- umurtqa pog’anasining qiyshayishi
- suyaklarni o’sishdan to’xtashi
- qaddi-qomatni buzilishi
- oyoqlarni qiyshayishi

454. Bolalar organizmida immunitet hosil bo’lishi uchun zarur modda:
- oqsil
- suv
- vitamin
- yog’lar

455. Bolalar uchun eng tabiiy va juda foydali ozuqa nima:
- bo’tqalar
- soklar
- mevalar
- ona suti

456. Maktabda 1000ta bola uchun nechta ovqatlanish o’rni tashkil qilinadi:
- 180 ta
- 200ta
- 250ta
- 500ta

457. Bolalar bog’chalarida qanday o’yinchoqlardan foydalanish mumkin emas:
- yumshoq o’yinchoq
- o’tkir jisimlar
- to’pponcha portlovchi moddalar
- rezinali o’yinchoq

458. 10-12 yoshli bolalar to’xtamay necha minut yozishlari mumkin:
- 15 min
- 10 min
- 20 min
- 3-5 min

459. Bolalar organizmi normal rivojlanishi uchun kundalik ovqat tarkibida sifatli oqsillar necha % ni tashkil etadi:
- 80-90%
- 60-70%
- 50-60 %
- 42-58%

460. Yassi oyoqlikning tug’ilgandan keyin yuzaga kelish sabablari:
- 8-10 oyligidan bolani yurgizish va uzoq vaqt oyog’da tik turg’izish, bolalarga poshnasiz yumshoq poyabzal kiyg’izish, o’quvchilar kun bo’yi poshnasiz sport poyabzalda yurishi
- poshnasi baland uch tomoni tor, orqa tomoni keng bo’lgan poyabzal kiyish
- og’ir yuk ko’tarish
- nasldan-naslga berilishi

461. Vitaminlarning bolalar organizmiga ahamiyati qanday:
- gormonlarning ta’sirchanligini kuchaytiradi, o’sishni kuchaytiradi
- organizmning chidamliligini kuchaytiradi
- o’sishni kuchaytiradi
- fermentlarning tarkibiga kiradi

462. O’quvchilarni partalarga o’tkazilayotganda nimalarga e’tibor beriladi:
- eshitishiga, ko’rish qobilyati va bo’yiga
- og’irligiga, eshitish qobilyatiga
- eshitishiga va ko’rish qobilyatiga
- og’irligiga, eshitishi va ko’rishiga

463. Dars jadvalini tuzishda qanday gigienik talablar e’tiborga olinadi:
- o’quvchining kun va hafta davomidagi nerv sistemasining ishchanlik qobilyatiga
- bolaning qaysi fanga qiziqishiga
- charchash xususiyatlariga
- nevrozga

464. 7-12 yoshli bolalar nima uchun jismoniy harakatda tez charchaydi:
- harakatlarning koordinatsiyalashmaganligi tufayli
- muskullarda mioglobin kam bo’lganligi uchun
- muskul kuchi kam bo’lganligi uchun
- muskullarga energiyaning kam taqsimlanganligi uchun

465. O’g’il bolalar rivojlanishidagi o’smirlik davrini belgilang:
- 8-12 yosh
- 17-21 yosh
- 13-16 yosh
- 21-35 yosh

466. Yangi tug’ilgan bola bir kecha-kunduzda necha soat uxlaydi:
- 20-22 soat
- 15-16 soat
- 12-13 soat
- 7-8 soat

467. Gigiena talablariga ko’ra, o’qiyotgan yoki yozayotgan narsadan ko’zning uzoqligi necha sm bo’lishi tavsiya etiladi:
- 10-20 sm
- 35-40 sm
- 30-35 sm
- 10-15 sm

468. Mehnatni himoya qilish bo’yicha o’qishni tashkil qilishga va o’z vaqtida o’qitishni, olingan bilimlarni nazorat qilishda javobgarlik kimga yuklatiladi:
- ish beruvchiga
- mehnatni himoya qilish bo’limiga
- kadrlar bo’limiga
- korxona shifokoriga

469. Mehnatni muhofaza qilish bo’yicha kimlar o’qitiladi:
- tashkilot ishchilari va rahbarlar
- zararli omillar bilan ishlovchi ishchilar
- xavfsizlik xizmatining ishchilari
- kadrlar bo’limi ishchilari

470. Transport harakati bilan bog'liq ish turida ishchilar kimning hisobidan dastlabki va davriy tibbiy ko'riklardan o'tadilar:
- ish beruvchi hisobidan
- o'z hisobidan
- dastlabki tibbiy ko'rik o'z hisobidan, davriy tibbiy ko'rik ish beruvchi hisobidan
- ishchining hohishiga ko'ra

471. Gigienik nuqtai nazardan namlikni qanday turi ko'proq ahamiyatga ega:
- nisbiy
- absolyut
- maksimal
- umumiy

472. Sun'iy yoritilganlik turlarini ayting:
- umumiy, mahalliy, kombinatsiyalashgan
- umumiy va va mahalliy
- yuqori, pastki, kombinatsiyalashgan
- yuqori va yon tomondan

473. Mehnatga layoqatli aholi qanday guruhlarga bo'linadi:
- 18-29; 30-39; 40-59
- 18-25; 26-35; 36-55
- 18-29; 30-49; 50-69
- guruhlarga bo'linmaydi

474. Ish joylarida yoritilganlikni uzoq vaqt davomida yetarli bo'lmaganligi sababli qanday kasallik kelib chiqadi:
- yaqindan ko'rish
- katarakta
- nistagm
- blefarospazm

475. Shovqinning gigienik tavsifi:
- tovushlarning betartib harakatining yig'indisi bo'lib, inson organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va ish faoliyatini kamaytiradi
- eshitish chastotadagi diapazonlarda qattiq jismlarning tebranma harakati
- elektromagnit to'lqin va kuchlanganlik maydoniga ega bo'lgan tovush maydonining muhit holatiga
- faqat ertalab seziladigan tovushlarga aytiladi

476. Shaxsiy himoya vositalarini saqlash va zararsizlantirish kim tomonidan olib boriladi:
- ish beruvchilar tomonidan
- ishchilar tomonidan
- ishchilarni hohishiga ko'ra

- kasaba uyushmasi tomonidan

477. Kasbdan zaharlanish deb:
- ishlab chiqarishda ishlab chiqarish jarayonidagi zaharlanish natijasida yuzaga keladigan kasallanish
- ishlab chiqarishda yuzaga keladigan barcha kasalliklar
- ish kunining kechki vaqtida yuzaga keladigan kasallik
- yangi ishga kelganlarda kuzatiladigan kasallik

478. Tovush balandligi qaysi birliklarda o'lchanadi:
- fonlarda
- detsibellarda
- kulon/metr kvadratlarda
- antifonlarda

479. Qanday shovqin doimiy shovqinlar deyiladi:
- 8 soatlik ish kunida shovqin darajasi 5 dB(dan yuqori bo'lgan shovqinlarga
- vaqt davomiyligida tovush darajasi o'zgaradigan shovqinlarga
- bir yoki bir nechta tovush signallaridan va davomiyligi 1 sek. dan oshmaydigan shovqinlarga
- tovush darajasi 5 dB (A) va undan yuqori bo'lgan shovqinlarga

480. Pnevmokonioz kasalligini oldini oluvchi shaxsiy himoya vositalari:
- respiratorlar
- himoya maskalari va pastalar
- ingalyatorlar
- himoya ko'zoynaklari

481. Ko'zdan ekran monitorigacha minimal masofa qanday bo'lishi kerak:
- 40 sm
- 20 sm
- 60 sm
- 80 sm

482. Kompyuter bilan doimo ishlaganda qancha vaqtdan so'ng tanaffus qilish kerak:
- har 3 soatda
- tanaffus qilish kerak emas
- har 1 soatda
- har 5 soatda

483. Kompyuter bilan ishlaganda tanaffuslarning minimal davomiyligini ko'rsating:
- 5-10 daqiqa
- 20-25 daqiqa

- 25-30 daqiqa
- 35-40 daqiqa

484. Kompyuter bilan ishlaganda tanaffus vaqtida nima qilish kerak:
- ko’z mashqlarini bajarish
- kitob o’qish
- televizor ko’rish
- tovon uchun gimnastika qilish

485. Ishlovchilarning mehnat muhofazasi va mehnat sharoitiga javobgar shaxs kim hisoblanadi:
- ishlab chiqarish rahbari
- texnika havfsizligi bo’yicha muhandis
- SEOvaJSQ (DSENM) mehnat gigiena shifokori
- tibbiy sanitariya qism shifokori

486. Nazorat ostidagi ob’ektlarda sanitariya tekshiruv turlari:
- rejali, mukammal, nazorat va mavsumiy tekshiruvlar
- nazorat, rejasiz, kollektiv tekshiruvlar
- bir martalik, general, davriy tekshiruvlar
- bosqichli, ogohlantiruvchi yo’naltiruvchi tekshiruvlar

487. Mehnat gigienasi shifokori tomonidan mukammal sanitariya tekshiruvlar necha yilda o’tkaziladi:
- 4 yilda 1 marotaba
- har chorakda
- yilda 2 marotaba
- ehtiyojga qarab

488. Salomatlikka ta’sir ko’rsatuvchi asosiy omillarga kiradi:
- tabiiy, ijtimoiy – iqtisodiy omillar
- tibbiy yordam holati, byudjet
- joyning geografik o’ziga xosligi, yilning mavsumi
- yashash hududida aholining zichligi, jins

489. Kimlar birlamchi tibbiy ko’rikdan o’tishi shart:
- barcha zararli va xavfli sharoitda ishlovchilar
- ishga kiruvchi barcha ishchilar
- 18 yoshdan kichik shaxslar
- 55 yoshdan kattalar

490. Pnevmokaniozning qaysi turi juda xavfli:
- silikoz
- alyuminoz
- bitsenoz

- antrakoz

491. Radioaktivlikni kim kashf qilgan:
- Bekkerel
- Per Kyuri
- Rentgen
- Mariya Kyuri

492. Qiz bolalarga xos bo’lgan navqironlik davrini aniqlang:
- 12-15 yosh
- 16-20 yosh
- 8-11 yosh
- 10-20 yosh